

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLİY VA O'RTA MAXSUS TALİM
VAZIRLIGI**

AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI



Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakul'teti

Bochlang'ich ta'lim kafedrası

**5111700-«Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish» bakalavr ta'lim
yo'nalishi 4-guruh talabasi**

ATAJANOVA NODIRA G'ULOMJANOVANING

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: Boshlang'ich sinflarda noan'aviy dars shakllaridan
foydalanish**

Talaba:	N.Atajanova
Ilmiy rahbar:	T.Keruenov
Kafedra mudiri:	S.Shinnazarova

Kafedra majlisining 2018-yil ____ sanasidagi №__ bayonnomasi bilan
himoyaga ruxsat berildi

Nukus - 2019

Himoyaga tavsiya qilindi

«___» _____ 2019 yil

Fakultet dekani: f.f.n.U.Seytjanova

Kafedra mudiri: f.f.n. S.Shinnazarova

Ilmiy rahbar: f.f.d. T.Keruenov

Kotiba: _____

Bitiruvchi Atajanova Nodira G‘ulomjanovaning «Boshlang‘ich sinflarda noan‘aviy dars shakllaridan foydalanish» mavzusidagi malakaviy-bitiruv ishiga Davlat attestatsiya komissiyasining qarori bilan «___» ball («___%») qo‘yildi.

«___» _____ 2019-yil

DAK raisi: _____

DAK a‘zolari: _____

Mundarija

Kirish	4
I.BOB. Boshlang‘ich ta‘lim jarayonida qo‘llaniladigan noan‘anaviy ta‘lim usullarining turlari va ahamiyati	7
1.1 An‘anaviy darslar tarixidan.	7
1.2. Boshlang‘ich ta‘limda noan‘anaviy darslar tashkil qilishning pedagogik asoslari	25
II bob. Noan‘anaviy darsni tashkil qilishning shakllari, metodlari, vositalari ...	34
2.1. Noan‘anaviy dars va o‘qituvchi faoliyati.....	34
2.2. Noan‘anaviy dars shakllari, metodlari, vositalari	41
2.3. Tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish va natijalar tahlili	47
Xulosa.....	55
Foydalanilgan adabiyotlar	56

Kirish

Mavzuning dolzarbligi: Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilangan vazifalarni bosqichma-bosqich amalga oshirilayotganligi natijasida, respublikamiz ta'lim tizimida tub islohotlar sodir bo'lib, u rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimi bilan uyg'unlashib bormoqda. Bu jarayonda tayyorlanayotgan kadrlarning kasbiy mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning eng muhim sifat ko'rsatkichlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Abdug'anievich Karimov ta'kidlaganidek: «Agar talabalar fikrlashga o'rganmasa, ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar. Albatta bilim ham kerak. Ammo u o'z yo'liga. Mustaqil fikrlash ham katta boylikdir.» Chunki, bozor iqtisodi sharoitida faqat mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan shaxsgina, ijtimoiy hayotda o'zining munosib o'rnini topoladi, jamiyat uchun ham, o'zi uchun ham foydali bo'ladi va turli g'arazli oqimlar ta'siriga berilmaydi. Shuning uchun ham, so'ngi yillarda malakali mutaxassislar tayyorlash jarayonida talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi noan'anaviy ta'limni tashkil qilish, faol usullarida foydalanishga ko'proq e'tibor berilmoqda. Noan'anaviy ta'lim usullarining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- O'quvchilarga tayyor o'quv materialini taqdim etmaydi;
- o'quv materiali shunday bayon etiladiki, o'quvchilar faol bilish va mustaqil o'zlashtirish jarayonida yangi bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladilar;
- faol o'qitishning negizida mustaqil fikrlashga undash yotadi.

Noan'anaviy ta'lim – o'quvchilar bilim olishga qiziqtiruvchi, bilim doiralarini kengaytiruvchi, ularda hozirjavoblik xususiyatlarini tarbiyalovchi, faollashtiruvchi va ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi kabi didaktik funktsiyalarni bajaradi. Tajribalarda ta'kidlanganidek, agar mashg'ulot odatdagi - faqat tinglab o'tirishga asoslangan usulda o'tkazilganda, o'quvchilar axborotning ko'pi bilan 20 foizini o'zlashtirgan bo'lsa, ilg'or pedagogik usullardan foydalanilganda esa, bu ko'rsatkich 80-90 foizgacha oshganligi tasdiqlangan.

Noan'anaviy ta'limning samaradorligi yana shundan iboratki, uning qatnashchilari yaxlit tizimli bilimga ega bo'ladi va mustaqil - ijodiy fikrlash

qobiliyatlari rivojlanishi negizida bo'lajak kasbiy faoliyatga oid boshlang'ich ko'nikmalar shakllantirilib, o'quv-tarbiyaviy jarayonni amaliyot bilan bevosita bog'lab olib borishni ta'minlaydi. Shuning uchun ham u, rivojlantiruvchi o'qitishning yuqori samarali usullaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi: Boshlang'ich sinf ta'lim jarayonida noan'anaviy ta'lim usullarining ilmiy-nazariy va tashkiliy-uslubiy jihatlarini o'rganish va qo'llashning amaliy tavsiyalarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifasi: Tadqiqotni maqsadlaridan kelib chiqib quyidagi vazifalar belgilab olindi va hal etishga harakat qilindi:

- mavzu yuzasidan pedagogik va metodik adabiyotlar tahlili.
- noan'anaviy ta'limni o'rganish va iqtisodiy dunyoqarashini shakllantirish muammosiga doir ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'rganish va ularni taxlil qilish;
- boshlang'ich ta'lim jarayonida noan'anaviy ta'lim usullarining afzaliklarini asoslab berish.
- boshlang'ich ta'lim jarayonida noan'anaviy ta'lim usullarining zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'rnini aniqlash.
- dars berish jarayonida o'quvchilar dunyoqarashini shakllantirishda noan'anaviy ta'lim usullaridan foydalanishning amaliy va metodik jihatlarini tadqiq etish va tegishli xulosalar ishlab chiqish.

Tadqiqot ob'ekti: Boshlang'ich sinf ta'lim jarayoni.

Tadqiqot predmeti: Boshlang'ich sinf darslarida noan'anaviy ta'lim usullarini tatbiq etish, o'quvchilarda dunyoqarashini shakllantirishda faol o'qitish metodlarining amaliy va metodik jihatlarini ko'rsatib berish.

Asosiy ishchi ilmiy taxmin: Boshlang'ich sinf darslarida noan'anaviy ta'lim usullarini qo'llab, qisqa vaqt ichida kattagina hajmdagi bilimlarni o'quvchilarga etkazib berish, noan'anaviy dars jarayonini qiziqarli va mazmunli tashkil etish va darsning samaradorligini oshirishni ko'zda tutadi degan taxminga kelindi.

Tadqiqotning nazariy va metodologik asosi. O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston

Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyov asarlari tadqiqotning nazariy va metodologik asosi sifatida olindi. Aniq vazifalarni hal qilishda noan`anaviy ta'lim usullarini yoritib bergan pedagogik adabiyotlardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy-amaliy ahamiyati: Tadqiqot natijasida respublikamiz boshlang'ich ta'lim muassasalarida "Boshlang'ich sinflarda noan`aviy dars shakllaridan foydalanish" mavzusini o'qitishda mavjud kamchiliklar va yutuqlar o'rganildi. Natijada ushbu mavzuni o'qitish, noan`anaviy ta'lim usullarini foydalanishning takomillashtirishi bo'yicha taklif va tavsiyalar berildi.

Mazkur bitiruv malakaviy ishdan boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari metodik qo'llanma sifatida foydalanish mumkin.

I.BOB. BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN AN'ANAVIY TA'LIM USULLARINING TURLARI VA AHAMIYATI

1.1 An'anaviy darslar tarixidan.

Har bir ijtimoiy tuzum kelajagi, insoniyat istiqboli, kishilarning hayoti va turmush darajasi fan va ma'daniyat taraqqiyoti bilan bevosita bog'liqdir. Fan va ma'daniyat rivojlanishi ta'lim-tarbiya ishlarining qay darajada olib borilishidan kelib chiqadi. Bu falsafiy aqida davlat ahamiyatiga ega bo'lgan ijtimoiy qonuniyat hisoblanadi.

Shunday ekan, O'zbekiston mustaqillikka erishganiga endigina 20 yil bo'lishiga qaramay qonun tomonidan ta'lim-tarbiya masalalariga alohida o'rin ajratilgan. (O'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy kengashining 11 sessiyasida 1992 yil 8dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 41 moddasida shunday deyilgan: «Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. O'quv muassasasi ishlari davlat nazoratidadir.

Mana shu yillar davomida ta'lim-tarbiya soxasida milliy axloq-odobni qayta tiklash borasida milliy urf-odatlar, turli-tuman an'analarni joy-joyiga qo'yish, milliy qadriyatlarni rivojlantirish xususida juda keskin va buyuk burilishlar bo'lmoqda.

Insoniyat ma'daniyatining ilk o'choqlari –Sharqdagi Qadimgi Hind va Xitoy, Kushon va Baqtriya ma'daniyati bo'lmaganida Rumon va YUnon ma'daniyati bo'larmidi? Musulmon Sharq uyg'onishi bo'lmaganida G'arb uyg'onishi (14-16asrlardagi) bo'larmidi?

Taniqli venetsiyalik sayyoh Marko Polo uzoq vaqt hozirgi O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston va qo'shni viloyatlar hududida yashagan xalqlarning an'analari, urf-odatlarini o'rgandi. U o'z ustaliklarida yosh avlodlarni hayotga tayyorlashda ko'p asrlar davomida qo'llanilgan usul va vositalarga tayangan xolda «Nur Sharqdan taraladi degan edi. Qadimgi Ovroqada keng tarqalgan mazkur xikmatda Sharq xalqlarining insoniyat ma'daniyat poydevorining yaratishdagi ulkan hissasi G'arb xalqlari tomonidan tan olingani ifodalangandir.

Lekin ma'naviyatni tiklashga bo'lgan xarakat faqat Ovro'pada yoki faqat Sharqda boshlangan deyish, g'arbu sharqni bir-biriga qarama-qarshi qo'yish ham noto'g'ri. Ota-bobolarimizning "O'tmishni unutganning kelajagi bo'lmaydi" degan xikmatli gapi bor. Biz sho' tariximizni qanchalik chuqur o'rgansak, ma'daniy merosimizga, an'analarimizni qaratsak, kelajak avlodga shunchalik to'g'ri ta'lim bergan bo'lamiz. Markaziy Osiyoda falsafiy, axloqiy, ma'rifiy tafakkurning ilk kurtaklari xalq og'zaki ijodida o'z aksini topgan. Ularda yozuv paydo bo'lgunga qadar va undan keyin ham xalq ruhi va ma'naviy faolligi aks ztgan. Sharqda, jumladan O'zbekiston hudidida ta'lim-tarbiyaga juda katta e'tibor berilgan edi. Bolalarni kichik yoshdan ilmga qiziqtirish, axloqan pok, vijdonli, mehr-shafqatli qilib voyaga etkazish, el-yurtga nafi tegadigan farzand qilib o'stirish masalalariga ota-bobolarimiz jiddiy e'tibor qilishgan.

Sharq pedagoglari bolalarni o'qishga qiziqtirish uchun kitobdagi voqealarni qush va hayvonlar tilidan hikoya qilar edilar. Masalan, «Qobusnoma», «Ahloqi Muhsiniy», «Kalila va Dimna» kabi asarlar shular jumlasidandir.

Markaziy Osiyo arablar tomonidan bosib olingan paytlarda ham iqtisodiy-ma'daniy xolati jihatidan rivojlangan o'lkalardan biri bo'lganligi tarixiy qo'lyozma va arxitektura yodgorliklaridan ma'lumdir.

7-8 asrlarda Markaziy Lsiyoni arablar fath etgach, islom dini asosidagi sifat jihatidan yangi tizimga ega bo'lgan ta'lim-tarbiya muassasalari vujudga keldi. Arab tilini o'rganish joriy etildi. Islom dini borib etgan erlarda machitlar, ular qoshida o'g'il bolalar uchun maktablar tashkil qilindi.

Arab bo'lmagan bolalarga islom dini asoslarini o'rgatish maqsadida Markaziy Osiyo maktablarida «Haftiyak», «CHor kitob» kabi darsliklar keng tarqatildi. 7 asrdan boshlab islom dinini turkiy tillarda yozilgan asarlarda ham ommalashtirish boshlandi. Misol tariqpsida Ahmad YAssaviyning «Hikmat» asarini keltirishimiz lozim.

Arablar Markaziy Osiyoda bir umr qolib ketmadilar va islomga iymon keltirgan barcha mahalliy xalqlarning milliy g'ururiga tegmaslik yo'lidan bordilar. Maktab, madrasa, masjidlar faqat ibodathona emas,

tarbiya o'chog'i vazifasini bajargan, demak, bilim, ma'daniyat, ahloq cho'qqilariga erishishda dinning ham o'z o'rnini bordin. Xalqlar o'z onalari tillarida so'zlashsalarida, yozuv arab alifbosida bo'lgan. U davrda savod chiqarish harf va so'zlarni yozishni o'rganishdan boshlanar edi. Maktab so'zi arabcha «yozuv o'rgatadigan joy» deb nomlanishi xam ana shundandir. Maktablarda bolalarga yozish va hisoblash o'rgatilgan, bundan tashqari, o'smirlarga savdo san'ati, arab tili, mantiq, notiqlik, usniyat va arifmetikadan saboq berilgan.

Har bir maktab talabasining soni 30-40dan oshmagan, bulardan tashqari, masjid qoshidagi maktablardagi xam 15-20talaba o'qishgan. Maktab, madrasalar bilan birga qorixonalar ham mavjud bo'lib, ularda yozuv o'rgatilmagan, talabalar, «Qur'on»ni yod olishgan, xolos. Madrasa-so'zi arabcha «dars o'qitiladigan joy», «ma'ruza tinglaydigan joy» ma'nosini bildiradi. Ma'lumki. O'sha joylardagi dars keng ma'noda qo'llanib, uning tarkibiga ta'lim-tarbiya, pand-nasihatlari, ustozshogird munosabatlari, donishmandlarning davra suhbatlari, juda katta hayotiy tajribalar sabog'i kirgan. «Mudarris»- dars beruvchi, o'qituvchidir.

Madrasalar 15-20, 30-40 va hatto 100-150 talabani o'qitishga mo'ljallangan bo'lib, diniy bilimlar bilan birga dunyoviy bilimlar ham berilgan. Qobiliyat, qiziqishi bo'lmagan bolalarni umrini zo'ra ketkizmasligi uchun ularga shogirdlikka tushish, dehqonchilik bilan shug'ullanishni maslahat berishgan.

O'zbekistonda pedagogik tafakkur va ta'lim-tarbiya taraqqiyoti tarixiga nazar tashlab, shartli ravishda uch davrga bo'lib o'rganish mumkin.

- 1.Oktyabr to'shtarishigacha bo'lgan davr (1917yilgacha)
- 2.Sho'rolar davri (1917-1991)
- 3.Mustaqillik davri (1991 yildan keyin).

Oktyabr to'ntarishigacha bo'lgan davr(1917 yilgacha). Bu davrda Zardushtiylik dinining chuqur ildiz otishi va shu dinning muqaddas kitobi «Avesto»ning Markaziy Osiyo va Eron kabi mamlakatlar o'rtasida yoyilishi, islom dinini Markaziy Osiyoga kirib kelishi, tarqalishi va aholini bu dinni qabul qilish bilan boshlanadi.

Ma'lumki, VII asrgacha, ya'ni arablar istilosidan oldin Markaziy Osiyoda zardushtiylik dini keng tarqalgan bo'lib, Turon, Eron, So'g'd va Xorazm xududlarida yashagan xalqlar asosan zardushtiylik ta'limotiga muvofiq o'z farzandlarini ibratli ahloq-odob qoidalari asosida tarbiyalaganlar. Zardushtiylik dininig asoschisi va «Avesto» kitobining muallifi Spitama Zaratushtra ta'lim-tarbiya masalalariga xam katta ahamiyat began holda mana bunday deydi: «Tarbiya hayotning eng muhim tirgagi tayanchi bo'lib hisoblanishi lozimki, u avvalo yaxshi o'qishni, keyin esa yozishni o'rganish bilan eng yuksak pog'onaga ko'tarilsin».

«Avesto»da bolalarni o'qitish va tarbiyalash qoidalari quyidagi tartibda tavsifiya etilgan:

a) diniy va ahloqiy tarbiya; b)

jismoniy tarbiya;

v) o'qish va yozishga o'rgatish; Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra, 15 yosh – balog'at yoshi hisoblangan. Balog'atga etgan bolalar zardushtiylikka e'tiqodi ramzi sifatida beliga yung ipakdan to'qilgan kamar bog'lab yurishi va «otashparastlar» ibodatxonasida o'tkazilgan diniy marosimlarda qatnashishi shart bo'lgan. Bolalarni kohinlar zardushtlik rasm-rusumlarini bajarishga, falsafa, odob-axloqqa o'rgatishgan.

Zardushtiylikda ma'rifat va bilimning kuchiga qattiq e'tiqod qilinadi va oqibat natijada ma'rifat yutib chiqadi, deb hisoblanadi. O'sha davrda bolalarning faqat sihat-salomat va jismonan baquvvat bo'lishi haqidagina emas, balki ilmu-ma'rifat olishi va ma'naviy sofligi, yaxshilik, ezgulik hislatlarini egallashlari to'g'risida xam g'amho'rlik

qilingan. Asosan, bolalarda ahloqiy poklik, mehnatsevarlik, rostgo'ylik, saxovatlilik fazilatlarini tarbiyalashga muhim ahamiyat berilgan. Jismoniy tarbiyadan nazarda tutilgan asosiy maqsad: bolalarni harbiy ishga tayyorlash va ularni jismonan chiniqtirishdan iborat edi. Darvoqe, harbiy tayyorgarlik jarayonida bolalar otda chopish, ov qilish, qilichbozlik va qalqonda raqibidan o'zini himoya qila bilish, suvda suzish, uzoqqa yugurish, sakrash, nayza irg'itishni egallashi majburiy bo'lgan. Biroq, diniy- ahloqiy va harbiy-jismoniy tarbiyani egallash barcha tabaqadagi

kishilarning farzandlari uchun shart bo'lsa-da, ammo o'qish, yozish va hisoblash (sanash)ni o'rganish esa faqat yuqori tabaqadagi kishilarning bolalari uchun edi, xolos. Yuqori tabaqadagi kishilarning bolalari uchun saroy va ibodatxonalar qoshida maxsus maktablar mavjud bo'lib, bu erda ularga tajribali ustozlar saboq berishar, taniqli lashkarboshilar esa harbiy san'at sir-asrorlarini puxta o'rgatishar edi. O'qituvchilar ulamo kohinlar bo'lib, ular jamiyat ma'naviy xayotida muxim mavqega ega edilar. Maktabda kichik yoshdagi bolalarni o'qitish jarayonida ko'rsatmali qurollardan, hikoya qilish va suhbat-muloqot usullaridan keng foydalanardilar. Darsda o'quvchilardan o'tilgan mavzuni shovqinsiz takrorlash talab qilinardi. Bolalarda yoshlikdan mehnatsevarlik va kasb-hunar egallash malakasi hamda ko'nikmasini shakllantirishga katta e'tibor berilgan. Ular yosh paytidanoq daraxt ko'chati o'tkazish, uy-ro'zg'or qurollari yasash, erga ishlov berish va chorva bilan shug'ullanishga o'rgatilgan.

Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, o'sha davr kishilarining orzusi hayotda farovon turmush kechirish uchun faqat mehnat qilishdan iborat bo'lgan. Zero, inson mehnatsiz tirikchilik qila olmaydi. Shuning uchun inson kamoloti va ahloqiy sog'lomligi manbai sifatida mehnat ulug'lanadi.

Xulosa shuki, qadimgi bobokolonlarimiz ko'ziga to'tiy qilgan «Avesto» muqaddas kitobi faqat diniy qo'shiq, hikoyat va rivoyatlardan iborat bo'libgina qolmasdan, balki tabiiy fanlar, xususan, tabobat, ta'lim-tarbiya masalalarini ham o'z ichiga olgan. Biz bu qadimiy noyob bilimlar xazinasini bilan tanishar ekanmiz, Zardushtra payg'ambarning o'z hayoti haqida, zamondoshlari haqida, shuningdek, u targ'ib qilgan ta'limotiga sig'ingan mamlakatlarning davlat tuzilishi, ta'lim-tarbiya va ahloq-odob to'g'risida ko'p narsalarni bilib olamiz. Zardushtiylik dinining afzal tomonlaridan biri shu ediki, unda hukmdorlar saltanatini mustahkamlovchi rasmiy aqidalar bilan birga, insonni o'z hayotining, o'z taqdirining yaratuvchisi sifatida ulug'lovchi insonparvarlik g'oyalari ham qaror topgan edi.

Ezgulik va yaxshilik Ahura Mazda, zulmat va yomonlik esa Anhra Manu (Ahrimanda) timsolida mujassamlashgan deya tan olinardi. «Avesto»da ilgari

surilgan bunday g'oya, u har qancha diniy va afsonaviy xususiyatlarga ega bo'lmasin, o'zining g'oyaviy-ahloqiy, tarixiy-ma'rifiy ta'sir kuchiga ega. Yaxshilik bilan yomonlik o'rtasidagi kurash faqat o'sha qadimgi davrlarga xos bo'libgina qolmasdan, hatto hozirgi kundagi hayotimizga ham tegishlidir. Chunki hozirgi kunda ham yaxshilik bilan yomonlik o'rtasida kurash to'xtagan emas. Inson xayotini, uning baxtiyorligini yoki baxtsizligini ana shu kurashning natijasi belgilab beradi. Mana shuning uchun ham, «Avesto»dagi ahloqiy-insonparvarlik qarashlarini o'rganish va uni hayotimizga tadbiq etish maqsadga muvofiqdir.

2. Beruniy Abu Rayxon Muhammad ibn Ahmad (973-1048), eng avvalo, qomusiy olim sifatida butun dunyoga manzur va mashhurdir. Uning dastlabki yirik asari «Al-asror alboqiya an al-qurun al-holiya» («Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar») bo'lib, buni u 27 yoshida yozgan edi. 486 sahifadan iborat bu asar o'zbekchaga 1968 yili tarjima qilingan. Olimning 364 sahifadan iborat «Tahdid nihoyot il-amokin li tashih masofot il-masokin» («Turar joylar (orasidagi) masofani aniqlash uchun manzillarning chegaralarini belgilash») «Geodeziya» nomi bilan yirik kitobi mashhur bo'lib ketgan.

O'sha davr ichida Beruniy falsafiy pedagogika maktabini yaratgan. Uning pedagogik qarashlari va faoliyatini o'rganishda olimning o'zidan ilgari o'tgan pedagoglarga nisbatan qanday yangi, nekbin fikrlar bildirganiga hamda ijodidagi ilgarilab boradigan pedagogik qarash va fikrlari rivojlanishiga e'tiborni qaratish juda muhimdir. Beruniy rahbarlik qilgan bu ilmiy dargoh qariyb 10 yil faoliyat ko'rsatgan.

Beruniy pedagogik ijodida inson va uning baxt-saodati, ta'lim-tarbiyasi, kamolati bosh masala bo'lgan.

Buyuk pedagog olim tarbiyaning maqsadi, vazifalari va roli, inson, yosh avlodning rivojlanishi haqidagi fikrlari chin ma'noda insonparvarlik va insonshunoslik asosiga qurilgan.

Beruniyning pedagogik g'oyalaridan eng muhimi bilimni puxta va mustahkam egallash zarurligidir. Mana, oradan ming yildan otiq vaqt o'tishiga

qaramasdan, Beruniyning ilg'or hayotiy pedagogik va falsafiy g'oyalari hozir ham g'oyatda qimmatlidir.

Shunday qilib, xulosa qilsak, Beruniyning pedagogik qarashlari asosan:

-oilada bola tarbiyasi; aqliy ta'lim;

-ahloqiy va jismoniy tarbiya:

-mehnat va insonparvarlik tarbiyasi:

3. Abu Nasr Farobiy (873-950) - O'rta asr Sharqining mashhur mutafakkiri, qadimgi yunon ilmi va falsafasining Sharqdagi eng yirik targ'ibotchisi va uning rivojiga hissa qo'shgan olim. Farobiy o'z davrining qator ilmlarini chuqur o'rganib, turli sohalarga oid ilmiy asarlar yozib qoldirdi. U o'z davrining birinchi faylasufi, musiqachisi, shoiri, qomusiy olimi bo'lib nom qozondi. U «Aql haqidagi risola», «Falsafani o'rganishdan oldin nimani bilish kerak?», «Substantsiya haqidagi so'z», «Falsafaning ma'nosi va kelib chiqishi», «Mantiq ilmiga kirish», «Masalalar mohiyati» kabi 160 dan ortiq risolalar yaratdi.

O'zida o'n ikki tug'ma hislatni birlashtirgan kishigina axloqli odam bo'la oladi:

Birinchidan, bunday odamning barcha organlari shu darajada mukammal taraqqiy etgan bo'lishi zarurki, u bu organlari bilan bajarmoqchi bo'lgan barcha ishlarini osonlik bilan amalga oshira olsin;

Ikkinchidan, barcha masalani, muxokama va mulohazani tezda va to'g'ri tushuna oladigan, uning ma'nosini anglay oladigan, so'zlovchining maqsadi va aytilgan fikrining chinligini tezda payqay oladigan bo'lsin;

Uchinchidan, xotirasi juda baquvvat bo'lsin, ko'rgan –eshitgan, sezgan narsalarining birortasini ham esidan chiqarmay, yodida saqlab qoladigan bo'lsin;

To'rtinchidan, zehni shu darajada o'tkir bo'lsinki biror narsaning alomatini sezishi bilan, bu alomat nimani bildirishini tezda bilib olsin;

Beshinchidan, so'zlari aniq bo'lsin, fikrini va aytmoqchi bo'lgan mulohazalarini ravon va ravshan bayon ayta olsin;

Oltinchidan, bilish va o'qishga muhabbati bo'lsin, o'rganmoqchi bo'lgan bilimni chachashni sezmasdan osonlik bilan o'zlashtira olsin:

Ettinchidan, ovqatlanishda, ichimlik iste'mol etishda ochko'z bo'lmasin, tabiati qimor o'yinlarini o'ynashdan uzoq bo'lsin va ular keltiradigan xursandchilikdan jirkanadigan bo'lsin:

Sakkizinchidan, haqiqatni va haqiqat tarafdorlarini sevadigan bo'lsin, yolg'on va yolg'onchilarga nafrat bilan qaraydigan bo'lsin:

To'qqizinchidan, ruhi g'ururli va o'z vijdonini qadrlaydigan bo'lsin, uning ruhi o'z tabiati bilan past ishlardan yuqori va olijanob ishlarga intiladigan bo'lsin:

O'ninchidan, dirham, dinor va shu kabi turmush buyumlariga jirkanish bilan qarasin:

O'n birinchidan, o'z tabiati bilan adolatni sevadigan va adolat uchun kurashuvchilarga, adolatsizlikka, jabr-zulm o'tkazuvchilarga nafrat bilan qaraydigan bo'lsin, go'zal va yaxshi hisoblangan narsalarini barchaga taqdim etgan holda, odamlarni adolatga targ'ib etadigan holda, adolatsizlik natijalarini yo'qotadigan, ularga yo'l qo'ymaydigan bo'lsin:

O'n ikkinchidan, adolatli bo'lsin, ammo qaysar bo'lmasin, adolat oldida, adolatsizlik, pastkashlik oldida qat'iy so'zlik bo'lsin, o'zi zarur deb bilgan narsasini amalga oshirishda qat'iylik ko'rsatsin, qo'rqmas, jasur bo'lsin, qo'rqish va ojizlikni bilmasin:

Ta'lim-tarbiya ahllari ham o'z bilimlarining darajasiga qarab bir-birlaridan farq qiladilar, ortiq kam bo'ladilar. Ularning ba'zi birlarida kashf, ixtiro quvvati bo'lmaydi, ba'zilarida esa bu quvvat kamroq bo'ladi.

4. Biz tarixdan bilamizki Amir Temur va dastlabki temuriylar hukmronlik qilgan davr Movarounnaxr tarixida alohida o'rin egallaydi. Chunki bu davrlarda Samarqand, Hirot shaxarlarida ma'daniyat, ilm-fan rivojlanib bordi.

Dastavval, shuni aytish kerakki, Amir Temur odob-ahloq, iymon, e'tiqod, ta'lim-tarbiyada o'zi yuksaklikka, mukammallikka erishgan siymolardan biridir. Bunga ishonch xosil qilish uchun bobomizning o'zi tomonidan yaratilgan odob-ahloqga oid dasturlar, o'gitlar, pand-nasihatlarni, shuningdek, Sohibqiron haqida tarixiy asarlarni ko'zdan kechirish kifoya. «Tuzuki Temuriy» («Temur tuzuklari»),

«Marfuzaota Temuriy» («Temurning aytganlari») va «Vakiota Temuriy» («Temurning boshidan kechirganlari») nomi bilan jahonga mashhur boʻlgan asarlarida Amir Temurning ibratli, hayotiy pand-nasihatlari va purma'no o'g'itlarining xar biri mazmun va ma'no kengligi, kuchliligi, teranligi, ta'siri, umuminsoniy qadriyatlar asosida qurilgan bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Bu asarlarni qadrlil xazina odob-axloqqa oid dasturlar deya olamiz.

Bu asarlarida Sohibqironning juda mashaqqatli va sertashvish: goh muvafaqqiyatli, goho sertashvish umrining ijodiy mevasidir. Asarlardagi barcha o'g'itlar xalqlarni bir maqsad sari birlashtirgan, jipslashtirgan, muvafaqqiyatlarga erishtirgan, sehrli tarbiyaviy kuchga ega bo'lgan durdona-pedagogikadir. Bu pedagogika Sohibqironning davlatni boshqarish va uni idora qilish, g'olibona harbiy yurishlar qilish, mamlakatda osoyishtalik o'rnatish, fan va ma'daniyatni rivojlantirish, xalqlar o'rtasidagi buzilmas do'stlik, mehr-shafqat, odamiylik va odob-ahloqni tarbiyalash kabi muammolarni hal qilishga bag'ishlangandir.

5. Xalqimiz asrlar osha ardoqlab, e'zozlab kelgan, milliy ma'daniyatimiz, fanimiz, ma'naviyatimizni shakllanishiga bebaho hissa qo'shgan buyuk siymolardan biri etuk davlat arbobi, munajjim, matematik, handasa ilmining buyuk namoyondasi, musiqashunos, shoir va nihoyat pedagogika fani rivojiga barakali hissa qo'shgan zabardast olim Muhammad Tarag'ay Ulug'bek edi.

1398 yildan Ulug'bekga Hamza ibn Ali qissago'y qilib tayinlandi. Uning yordamida 4 yoshidayoq o'qish va yozishni o'rgandi.

Muhammad Tarag'ayning ilmiy, ma'daniy kamoloti ana shunday muhitda shakllanib, sayqallanib bordi. Ma'lumki, musulmon davlat tuzumida ikki asosiy bosqich: ibtidoiy maktablar va o'rta madrasalar mavjud edi. Ulug'bek davrigacha ham bu tizim saqlanib qolgan. Lekin Ulug'bekning tashabbusi bilan ta'limning boshlang'ich bo'g'ini sifatida barcha mahallalarda qorixona va daloilxonalar qaror topdi.

Allomaning fikricha fanni egallash, loaqal savod chiqarish muhim masala edi.

Ibtidoiy maktablarda o'qish muddati qat'iy chegaralab qo'yilmagan edi. O'quvchi belgilab qo'yilgan miqdordagi bilimlarni (aksariyat diniy bilimlarni) egallay olmasa, u 15-20 yillab o'qishda qolib ketishi mumkin edi.

Ulug'bek tashkil etgan daloilxonalarda o'qish muddatini qat'iy 8 yil qilib belgilab qo'yilgan. Shuningdek, dars berishning individual usulidan «jamo» usuliga o'tkazildi. Bunda har bir guruxda yosh jihatiga ko'ra 15-20 o'quvchi bir vaqtda saboq olar edilar. Bu endi dars o'tishning sinf sistemasiga yaqinlashish edi.

Daloilxonalarini muvaffaqiyatli bitirgan bolalar o'rta ta'lim madrasalarida bilim olishga yo'naltirilganlar.

Ulug'bek keng ko'lamda ilmiy tadqiqotlar o'tkaza olishga qodir, ilmiy kashfiyotlarni amalga oshira oladigan oliy bosqichdagi madrasalar bo'lishini ham orzu qilgan.

1417 yilda Buxoroda, 1420 yilda Samarqandda, 1433 yilda G'ijduvonda qurilgan edi. Shuning uchun ham biz Ulug'bek haqli ravishda Samarqandda oliy ta'lim tizimiga asos solgan deya olamiz.

Qurilgan madrasalar shunchaki xonaqolardan iborat bo'lib qolmasdan, uning ichida o'qish, yozish, mutolaa qilish, tajribalar olib borish, mustaqil shug'ullanish va dam olish uchun to'la shart-sharoitlar yaratilgan. Uning tarkibida laboratoriya tipidagi amaliyot xonalari, qiroatxona va boy kutubxonalar mavjud.

6. O'zbek adabiyotining asoschisi, shoir, olim, ma'rifatparvar, faylasuf, musiqashunos davlat arbobi Nizomiddin Alisher Navoiy Hirotda tug'ilib, shu erda yashab ijod etgan. U o'zining «Xamsa», «Maxbub ul-qulub» kabi yirik ta'limiy-ahloqiy asarlarida, shuningdek, «Munojot», «Vaqfiya», «Majolisun nafa'is», «Muhokamat ul-lug'atayn» asarlarida tarbiyaga oid o'z qarashlarini ifoda etadi.

Alisher Navoiy inson tafakkuri, aqli, bilimini va ilmiy bilimlarini yuksak qadrlagan. U «Bilim va donishmandlik insonning bezagidir»-deb yozadi. Navoiy bola tarbiyasiga va uni shaxs sifatida shakllantirishga katta ahamiyat berib, bolani hayot «chirog'i» deb ta'riflaydi. Bola oilaga baxt va saodat keltiruvchi ziyodir.

Alisher Navoiy pedagog-mudarris. U, ta'lim-tarbiya masalalariga alohida e'tibor berar ekan, tarbiya jarayonlarini, vositalarini, talablarini ko'rsatadi. U

ta'limda *ilmiylik, asoslanganlik, tarixiylik* kabi talablarni asos qilib oladi. O'z davridagi musulmon maktablarining yutuq va kamchiliklarini tahlil etadi. Uning asarlarida ahloqiy va mehnat tarbiyasiga doir qarashlar asosiy o'rinni tashkil etadi.

Sho'rolar tuzumi davri. Taniqli o'zbek pedagogi va olimi Abdulla Avloniy jadidlarning etuk vakillaridan biri bo'lib hisoblanadi. U o'zining dastlabki she'rlarida va «Xijron» degan maqolasida xalqni yangi usul o'quv muassasalarida o'qib-o'rganishga targ'ib qiladi.

A.Avloniy 1907 yilda Toshkentning Mirobod mahallasida, keyinchalik Direz mahallasida yangi usuldagi o'quv maktablari ochdi. O'quv maktablardagi o'quv-asbob jihozlarini o'zgartirdi, o'z qo'li bilan parta va doskalar yasadi. O'quv muassasasiga qabul qilingan tarbiyalanuvchilarning asosiy qismi kambag'al kishilarning farzandlari bo'lgani uchun ularni kiyim-kechak, oziq-ovqat, daftar-qalam bilan ta'minlash maqsadida, do'stlarining ko'magida «Jamiyat xayriya» tashkil etadi va bu jamiyatga o'zi raislik qiladi. Avloniyning o'quv muassasasini o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalariga ko'ra mashg'ulotlarni sinf-dars tizimi asosida o'z ona tilida olib borilishi bilan eski usul o'quv maktablaridan farq qiladi. U o'z o'quv muassasasida bolalarga geografiya, tarix, adabiyot, til, xisob, xandasa, hikmat kabi fanlardan muayyan ma'lumotlar beradi.

A.Avloniy «Usuli jadid» o'quv muassasasilari uchun to'rt qismdan iborat «Adabiyot yoxud milliy she'rlar» hamda «Birinchi muallim» (1912yil) , «Turkiy guliston yohud axloq» , «Ikkinchi muallim», «Maktab gulistoni» , kabi darslik va o'qish kitoblari yaratdi. Bu asarlarida hamda publisistik maqolalarida dunyo xalqlari ma'daniyatini, ilm-fanni, o'quv muassasasi va maorifni ulug'lab, o'z xalqini ilmli, ma'daniyatli bo'lishga chaqiradi.

A.Avloniyning pedagogikaga oid asarlari «Turkiy guliston yoxud ahloq» asari XX asr boshlaridagi pedagogik fikrlar taraqqiyotini o'rganish sohasida katta ahamiyatga molikdir. Bu asar ahloqiy va ta'limiy tarbiyaviy asardir. Asarda insonlarni «yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlardan qaytaruvchi bir ilm-ahloq» haqida fikr yuritiladi.

2. Munavvar Qori Abdurashidxon o'g'li (1878-1931) ham «usuli savtiya» maktabiga ixlos bilan qarab, chor hukumati Turkiston o'lkasidagi aholini qanday ma'naviy-ma'daniy uzlatda saqlanayotganini va undan qutulish choralari faqat maktab ta'lim-tarbiyasidagi keskin islohatga bog'liqligini to'g'ri tushungan holda chor hukumatining mustamlakachilik boshqarma usuliga qarshi kurashda faollik ko'rsatdi: mana shu maqsad yo'lida Toshkentda ilg'or fikrli ziyolilar va turli guruhlardan iborat «Turon» jadidchilar jamiyatini tashkil etdi. Munavvar qori Turkiston o'lkasining iqtisodiy va ma'daniy taraqqiyot yo'liga kirishida, musulmon bolalariga dunyoviy bilimlar berishning birdan-bir yo'li eng avvalo mavjud eski maktab va madrasalarni isloh qilish, yangi maorif tarmoqlarini yaratishda deb tushungan holda, o'ris-tuzem maktablariga qarshi yangi usuldagi maktablarni ochishga ahd qiladi. Shu bois, u 1901-1904 yillarda Toshkentda «usuli savtiya» yoki yangi usuldagi jadid maktabini ochadi. U maktabni avval o'z hovlisida, keyin boshqa joylarda ochishga harakat qiladi. Munavvar qori qadimchilar tomonidan «kufur uyasi» deb atalgan yangi usul maktabiga ilm-ma'rifat o'chog'i, yangi ma'naviyat, ma'naviyat maskani, yoshlarni milliy mustaqillik uchun kurashga hozirlaydigan targ'ibotxona sifatida qaradi. Munavvar qori ochgan yangi usul «Namuna» maktabida bir necha yuz bola o'qigan. Bu maktabda tayyorgarligi ancha jiddiy bo'lgan iste'dodli yoshlar o'qituvchilik qilishgan. Munavvar qorining o'zi esa jadid maktablari uchun yangi tovush («usul savtiya») usuli – «Adibi avval» (birinchi adib (1907) alifbosi va «Adibi soniy» (ikkinchi adib, 1907), «Er yuzi» («Jo'g'rofiya»), «Havoyijon diniya»(1907) kitoblarini yozib chop ettirgan. Bular o'lkadagi jadid maktablari uchun asosiy darslik sifatida bir necha qayta nashr etildi.

O'zbek halqini ma'rifatli qilishga intilgan Munavvar qori 1918 yil may oyida Toshkent shahrida «Turk o'chog'i» ilmiy-ma'daniy jamiyatini tuzadi. Ushbu jamiyat Turkiston turklarini milliy tug' ostiga to'plab, ularga milliy ruh , milliy g'oya va milliy tarbiya berish, milliy urf-odatlar asosida ilm-ma'rifatli, tijorat, adabiyot va san`atni rivojlantirib, chin bir turk ma'daniyatini vujudga keltirishni va

shu tariqa millatimizning ruhiy va jismoniy quvvatini orttirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Munavvar qori ana shu g'oya asosida astoydil ish olib bordi.

O'sha yilning 3 mayida Turkiston Xalq dorilfununining musulmon bo'limi tashkil etadi. Saylovda Munavvar qori rais (rektor) etib saylandi. Bu bo'lim tez orada o'ziga xos yirik bilim maskaniga aylanadi. Dastlab 9 ta boshlang'ich maktab ochish mo'ljallangan bo'lsa-da, aholi ehtiyojiga ko'ra, ularning soni 24 taga etdi. 1918 yil 2 iyun` kuni o'zbeklar uchun maxsus o'qituvchilar tayyorlovchi bo'limi- »Dorilmuallimin» ochildi. Unda Munavvar qori ona tilidan dars bera boshladi.

Munavvar qori 1922 yildan Turkiston muorif noziri, keyin esa Toshkentning eski shahar maorif bo'limi muboshiri (inspektori) bo'lib ishladi, o'sha yili 23-25 martda bo'lib o'tgan 2 –Umumturkiston maorif xodimlari qurultoyida ishtirok etib, maktab bo'limiga a'zolikka saylandi. Keyinchalik Alisher Navoiy nomli ta'lim-tarbiya bilim yurtida va turli bilim yurtida va turli maktablarda o'zbek tili va adabiyotidan dars berdi. Do'stlari va shogirdlari Qayum Ramazon va Shorasul Zunnun bilan hamkolikda uch bo'limdan iborat «O'zbekcha til saboqlari» kitobini (1925 yil) nashr ettirdi.

Munavvar qorining tarbiyashunoslik qarashlariga to'htaladigan bo'lsak, insonlarni faqat olijanob fazilatlarga, yoshlarga esa halol mehnat qilishga, ilm-ma'rifat va kasb-hunar o'rganishga, rostgo'y bo'lishga chorlaydi.

Mustaqillik davri (1991 yildan keyin)

Ta'limni boshqarishning asosiy tashkiliy shakli quyidagi ma'lum belgilarga ega bo'lgan mashg'ulotlar guruh yo'sinda o'tkaziladi:

- mashg'ulotlarning har yili va har bir o'qish kuni bir paytda boshlanishi;
- mashg'ulotlar va ular orasidagi tanaffuslarning ma'lum vaqt davom etishi;
- guruhlardagi bolalarning yoshi va soni jihatdan baravarligi;
- material o'rganish sur`atining bir xilligi;
- o'quv mashg'ulotlarining ma'lum tashkiliy shaklda o'tkazilishi.

Guruhli mashg'ulotlarning sinf-dars tizimi deb atalgan bunday shakli keng tarqaldi, mustahkamlandi va hozir ham ancha takomillashgan holda mavjuddir.

Maktab rivojlanishi tarixida 20-yillarda ta'limning yakka tartibdagi shakli notanqidiy yo'sinda qabul qilindi va amaliyotga ta'limning brigada-laboratoriya metodi bilan kiritildi. Unda bir guruh (5-6 nafar) o'quvchilar o'qituvchi tavsiya etgan materialni mustaqil holda o'rgandilar. O'qituvchi maxsus tushuntirishlar bermay, faqat yo'l-yo'riq ko'rsatgan. Hamma narsa uchun brigadir javob bergan. Bunday ta'lim bolalarning o'quv faoliyati uchun ma'suliyatini pasaytirgan.

Maktab barham topishining noto'g'ri pedagogik konsepsiyalari davrida ta'limning «loyihalar metodi» deb atalgan shakli vujudga kelgan. Unda o'quvchilar o'qituvchining topshirig'i bo'yicha qandaydir ob'ektning loyihasini tayyorlaganlar. Mazkur g'oyalar mualliflarinig aytishicha, o'quvchilar loyihani tuzishda o'quv rejasi bo'yicha o'tiladigan predmetlarga doir kompleks bilimlarni o'zlashtirgan.

So'nggi yigirma yil mobaynida pedagogika nazariyasi kombinatsiyalashgan darsni o'rganishdan darsni elementlari bo'yicha bosqichma – bosqich o'zlashtirishga, undan sintetik va nihoyat, muammoli o'rganishga o'tdi. Tadqiqotlarning uzviyligi va uzviy yondashishi to'g'risida juda ko'p ilmiy adabiyotlar mavjud. Masalan, M.I.Maxmutov, T.D.Kirilova, F.F.Korolyov va E.G.YUdinlarning hozirga zamon darsi, uni tashkil etish shakli, kamol toptiruvchi ta'lim sharoitdagi dars nazariyasi va amaliyoti, muammoli dars va xokozolarga doir kitoblarida darsga sistema sifatida qaralsagina, uni chuqur tushunish mumkinligi qayd qilingan. Lekin pedagoglar 70-24 yillardagina darsni o'rganish va tushuntirishga sistemali yondashish zarurligini to'la angladilar. Fanlar rivojlanishining hozirgi bosqichida darsni qanday tushunish kerak?

Dars nazariyasida hozirgacha bu tushunchaning yangi ta'riflari yo'q. Ko'p ta'riflarda xuddi ilgorigidek, **dars ma'lum vaqt mobaynida tarkibi o'zgarmaydigan o'qituvchi va o'qituvchilar faoliyatini tashkil etishning shakli bo'lib, u bolalarni o'qitish, tarbiyalash va kamol toptirish vazifalarini amalga oshirish uchun muntazam qo'llanishi ifodalangan.**

Darsda o‘quv-tarbiya ishlarining barcha komponentlari: maqsad, mazmun, vositalar, metodlar, tashkil etish va boshqarish faoliyati hamda uning hamma didaktik elementlari mujassamlashgan, deb hisoblash qabul qilingan.

Tabiiyki, dars yaxlit ta’lim jarayonini o‘quv-tarbiya ishining boshqa tashkiliy shakllari — uy vazifasini bajarish, predmet to‘garaklarining mashg‘ulotlari, sayrlar va hokozolar bilan uzviy birlikda aks ettiradi. «Darsni ikki jihatdan: umuman, ta’lim jarayoni va ta’limni tashkil etish shakli sifatida ta’riflab uni foydali deb hisoblash taklifi bor (M.I.Maxmutov). Ta’limga umumiy jarayoni dars o‘qitish harakatining ta’lim mazmuni, printsiplari va metodlari bilan belgilanadigan, ma’lum makon-zamon chegaralarida o‘qituvchi rejalashtiradigan hamda boshqaradigan birlikdagi ob`ekt o‘qituvchi va o‘quvchilar amalga oshiradigan asosiy shaklidir. Mazkur tushuncha ikkinchi nuqtai nazardan quyidagicha ta’riflanadi; dars ma’lum tarkibdagi o‘qituvchilar (muallimlar) bilan o‘quvchilarning maqsadga muvofiq o‘zaro ta’siri (faoliyatlari va aloqalari) jarayonini tashkil etishning, ta’lim mazmuni, shakllari, metodlari, vositalarini o‘z ichiga oladi, ta’lim jarayonida o‘qitish, kamol toptirish va tarbiyalash vazifalarini amalga oshirish uchun (bir xil vaqt ichida) muntazam qo‘llanadigan boy va o‘zgaruvchan shaklidir».

Sobiq Markaziy Komiteti 1932 yil 25 avgustda «Boshlang‘ich va o‘rta maktabning o‘quv dasturlari va rejimi to‘g‘risida» qaror qabul qildi. Bu qarorda « Boshlang‘ich, o‘rta maktabda o‘quv ishini uyushtirishning asosiy shakli-ma’lum guruh o‘quvchilari bilan, qat’iy mashg‘ulot jadvaliga muvofiq dars olib borish lozim: bunda har bir guruh o‘quvchilar tarkibi sira o‘zgarmasligi kerak; o‘quv ishining bu shakli o‘qituvchining rahbarligi ostida, butun guruhni birlashtirib ishlashi, brigadalarga bo‘linib ishlash va har bir o‘quvchining individual ishlashini o‘z ichiga olishi; o‘qitishning xilma-xil usullarini qo‘llanishi kerak», deb ko‘rsatib qo‘yildi.

Endilikda mustaqil jumxuriyatimiz xalq tizimi oldiga qo‘ygan talab va extiyojlaridan kelib chiqqan xolda maktab ta’limini tashkil qilishning yangi-yangi shakllari yaratilmoqda.

Sinf-yoshi va bilimi jixatdan bir xil bo‘lgan ma’lum miqdordagi o‘quvchilar guruhidir.

Dars, deb bevosita o‘qituvchining rahbarligida muayyan o‘quvchilar guruhi bilan olib boradigan ta’lim mashg‘ulotiga aytiladi.

Dars-o‘quv ishlarining asosiy tashkiliy shaklidir.

Dars-o‘quv ishlarining markaziy qismidir.

Maktablarimiz bosib o‘tgan tarixiy davr ichida ta’limni tashkil qilish shakllari o‘zgardi, rivojlandi. Xozir maktablarimizda qo‘llanilayotgan sinf-dars tizimi quyidagi tashkiliy shakllarda olib boriladi.

1. Xar qaysi sinf yoshi va bilimiga ko‘ra bir xil darajadagi bolalarning doimiy guruhiga ega bo‘ladi.
2. Dars mashg‘uloti asosan 45 minutga mo‘ljallangan bo‘lib, qat’iy jadval orqali olib boriladi.
3. Dars bevosita o‘qituvchining rahbarligida jamoa va yakka shaklda olib boriladi.
4. Dars o‘tilayotgan materialning mazmuniga qarab xilma-xil usul bilan olib boriladi, ta’lim tizimining bir qismi sifatida, albatta, tugallangan bilim beradi va navbatdagi bilimlarni o‘zlashtirish uchun zamin yaratadigan qilib uyushtiriladi.

Darsning muayyan miqdordagi tiplarini belgilashning turlari, yo‘llari bilan uning ancha jiddiy strukturasi ishlab chiqilgan. T.A.Ilina darsning o‘z strukturasi barcha asosiy elementlarini olgan tipini, ya’ni umumiy yoki aralash darsni tavsiya etadi.

Darsning birinchi bosqichi—tashkiliy qism. Odatda, bu qismga salomlashish, o‘quvchilarning, sinf xonasidagi jihozlarning darsga tayyorligini tekshirish, darsda yo‘q o‘quvchilarni aniqlash, ishning rejasini e’lon qilish kiradi. Tashkiliy qismning maqsadi- darsda ish vaziyatini vujudga keltirishdir.

Darsning ikkinchi bosqichi—yozma uy vazifasini qo‘yilgan maqsaddan qat‘iy nazar , turli metodlar bilan tekshirish.

Darsning uchinchi bosqichi—o‘quvchilarning bilimlarini og‘zaki tekshirish (yoki ulardan so‘rash).

Darsning to‘rtinchi bosqichi—o‘qituvchining bayon etishi asosida yoki o‘qituvchilarning mustaqil tahlil qilishi orqali yangi materialni tushuntirish.

Darsning beshinchi bosqichi—uyga topshiriq berish. Darsning bu qismiga mazkur topshiriqning mohiyatini, lozim bo‘lsa, uni bajarish metodikasini ham tushuntirish, uni o‘qituvchining o‘zi doskaga yozishi, o‘quvchilarning daftarga yoki kundalikka ko‘chirishi kiradi.

Darsning oltinchi bosqichi—yangi materialni mustahkamlash, ya’ni dastlabki yoki yo‘l-yo‘lakay mazkur material bayon qilinayotganda amalga oshiriladigan mustahkamlashdir.

Darsning ettinchi bosqichi—uni tugallashdan iborat bo‘lib, bu ish tashkiliy ravishda amalga oshirilishi kerak. Chunki dars faqat o‘qituvchining ko‘rsatmasi bo‘yicha mustahkamlanadi. Muallif ana shu ettita elementini nazarda tutib, uning strukturasi quyidagicha ifodalaydi. **I.** Bilimlarni mustahkamlash darsi.

1. Tashkiliy qism.
2. YOzma topshiriqni (bor bo‘lsa) tekshirish.
3. So‘rash –mustahkamlash.
4. Uyga vazifa berish.
5. Darsni tugallash.

II. YAngi murakkab materiyalni tahlil qilishda uy vazifasi tekshirilmaydi.

- 1.Tashkiliy qism.
- 2.YAngi materiyalni tushuntirish. 3.Yo‘l-yo‘lakay mustahkamlash.
- 4.Uyga vazifa berish: darsni tugallash.

III. Muammoli darslar.

- 1.O‘quvchilarni uyushtirish.

2. Muammoli ifodalash, taxminiy bayon qilish (natija qanday bo'lishi mumkinligini aytish) va echimning variantlarini bildirish: muammoni amaliy hal qilishni izlash.
3. Natijalarni muxokama qilish.
4. O'qituvchining sharhi va umumlashtirishi.
5. Uyg'a vazifa berish. 6. Darsni tugallash.

Darsning turlari quyidagicha:

I. a) dars—leksiya; b) dars—suhbat; v) kino darsi; g) nazariy yoki amaliy mustaqil (tadqiqot tipidagi) ishlar darsi; d) aralash dars (bitta darsda darsning har xil turlari birikmasi).

II. a) mustaqil (og'zaki yoki yozma mashqlardan iborat reproduktiv tipdagi) ishlar darsi; b) dars—laboratoriya ishi; v) amaliy ishlar darsi; g) dars—ekskursiya.

III. a) og'zaki (umumiy, yakka tartibda, guruhiy) so'rash; b) yozma (yakka tartibda) so'rash; g) sinov; d) sinov amaliy (laboratoriya) ishi; e) kontrol ish; f) aralash dars.

Ayni paytda, maktablarimizda ta'limni tashkil qilish shakllari ikki turda olib borilmoqda.

1. Sinf-dars shaklida olib boradigan mashg'ulotlar.

2. Amaliy va tajriba ishlari olib boriladigan mashg'ulotlar.

Sinf-dars shaklida olib boriladigan mashg'ulot o'qituvchining kundalik o'quv materialini tizimli bayon qilib berishni, xilma-xil usullardan foydalanishni, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini izchillik bilan hisobga olib borishni, o'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Amaliy va tajriba ishlari shaklida olib boradigan mashg'ulotlar sinf sharoitidan tashqari, o'quv ustaxonasi, tajriba er uchastkalari va fermer xo'jaligi ekin maydonlarida ishlash, ekskursiyalar o'tkazish yo'li bilan olib boriladi.

1.2. Boshlang'ich ta'limda qo'llaniladigan noan'anaviy ta'limning nazariy g'oyalari

O'rganilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, an'anaviy dars o'tish ta'limning o'ziga xos modellaridan biri bo'lib qolmoqda.

An'anaviy dars – muayyan muddatga mo'ljallangan, ta'lim jarayoni ko'proq o'qituvchi shaxsiga qaratilgan, mavzuga kirish yoritish, mustahkamlash va yakunlash bosqichlaridan iborat ta'lim modelidir.

O'quv materiali yangi va ancha murakkab bo'lganda, an'anaviy dars – ko'p hollarda ta'lim jarayonining birdan-bir metodi bo'lib qolmoqda.

Ma'lumki, an'anaviy darsda ta'lim jarayonining markazida o'qituvchi turadi. Shu bois ba'zida an'anaviy darsni markazida o'qituvchi turgan o'qitish usuli deb ham atashadi.

Markazda o'quvchi bo'lgan o'quv jarayonining, darsning maqsadi va uning ijobiy jihatlari quyida keltirilgan asoslarga tayanadi:

- O'quvchining o'qishga bo'lgan ishtiyoqini oshirib borish;
- Ilgari egallagan bilimlarni ham inobatga olish;
- O'qish jarayoni tezligini muvofiqlashtirish;
- O'quvchi tashabbusi va majburiyatini qo'llab-quvvatlash;
- Amaliyot orqali o'rganish;
- Ikki tomonlama fikr-mulohazalar bilan ta'minlash;
- O'qish jarayonini to'g'ri yo'lga qo'yish;
- O'qituvchi-o'quvchilar uchun o'quv jarayonini yengilashtiruvchi shaxs;
- O'quv jarayonini baholash.

An'anaviy dars o'tish modelida ko'proq ma'ruza, savol-javob, amaliy mashq kabi metodlardan foydalaniladi. Shu sabab, bu hollarda an'anaviy dars samaradorligi ancha past bo'lib o'quvchilar ta'lim jarayonining passiv ishtirokchilariga aylanib qoladilar. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy dars shaklini saqlab qolgan

holda, unga turli – tuman o‘quvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini ko‘tarilishiga olib kelar ekan.

Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil rag‘batlantirilib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda bahs, munozara, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash tadqiqot rolli o‘yinlar metodlarini qo‘llash, rang-barang qiziqtiruvchi misollarning keltirilishi, o‘quvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash rang-barang baholash usullaridan foydalanish ta’lim vositalaridan joyida va vaqtida foydalanish talab etiladi.

An’anaviy dars o‘tishning asosiy tarkibiy qismlari

Kirish.

- o‘tgan materialni takrorlash
- dars maqsadini tushuntirish
- dars mazmuni va rejasi bilan tanishtirish.

1. Yangi mavzuni yoritish.

- yangi mavzuni kichik-kichik bo‘lakchalarga bo‘lib berish
- rang-barang misollar imkoni boricha ko‘rgazmali taqdim qilish
- mavzudan cheklashmaslik
- materialning murakkab tomonlarini qayta tushuntirish
- o‘quvchilarning tushunuvchanlik darajasini tekshirib borish
- teskari aloqani ta’minlash.

2. Yo‘naltirib turiluvchi mashq.

O‘quvchilar mashq (yoki masalani) mustaqil bajarishadi o‘qituvchi esa ularni nazorat qilib, tuzatish kiritib boradi.

3. Mustaqil bajariladigan mashq.

O‘quvchilar mashqni mustaqil holda o‘qituvchi yordamisiz bajariladi.

4. O‘quvchilar tushunarlik darajasini tekshirish.

5. Yakunlash

Dars mavzusining asosiy tushunchalari va o‘quv maqsadlarini jamlash.

An'anaviy va noan'anaviy darslarning afzalliklari va kamchiliklari.

AN'ANAVIY

(ta'lim jarayoni markazida o'qituvchi bo'lgan) ta'lim

Afzalliklari

Ma'lum ko'nikmalarga ega bo'lgan va aniq ma'lum tushunchalarni, fanni o'rganishda foydali.

O'qituvchi tomonidan o'qitish jarayonini va o'qitish muhitini yuqori darajada nazorat qilinishi.

Vaqtdan unumli foydalanish.

Aniq ilmiy bilimlarga tayanadi.

Kamchiliklari

O'quvchilar passiv ishtirokchi bo'lib qoladilar.


O'qituvchining to'la nazorati barcha o'quvchilar uchun motivatsiyani vujudga keltirmaydi.

O'quvchilar o'qituvchi bilan bevosita muloqotga kirisha olmaydi.

Eslab qolish darajasi hamma o'quvchilarda bir xil bo'lmagaligi sababli, sinf bo'yicha o'zlashtirish darajasi past bo'lib qolishi mumkin.

Mustaqil o'rganish va yechimlar qabul qilish uchun sharoitlar yaratiladi.

NOAN'ANAVIY
(ta'lim jarayoni markazida o'quvchi bo'lgan) ta'lim



Bugungi ta'lim jarayoni pedagogning shaxsga bo'lgan insonparvarlashtirilgan munosabati bolalarni sevish, ularning taqdiri uchun qayg'urishi, bolalarga ishonchning yuqoriligi, o'zaro hamkorlikning vujudga kelishi, muloqot madaniyatining yuqori darajada bo'lishi, ta'lim oluvchilarni to'g'ridan-to'g'ri majburlashdan voz kechish va aksincha ijobiy rag'batlantirishning usutnligi tufayli ko'zlangan maqsadga erishish, bolalar faoliyatida uchraydigan kamchiliklarga chidamli bo'lish, ularni bartaraf etishning samarali usullarini qo'llashda namoyon bo'lsa, ta'lim jarayonini demokratlashtirish esa o'qituvchi va o'quvchilar huquqlarini tenglashtirish, ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilarga tanlash huquqining berilishi, o'z fikri, nuqtai nazarini erkin bayon etishni aqozo etadi.

Noan'anaviy ta'lim jaaryonida o'quvchilar va o'qituvchilar munosabatining o'ziga xos jihati o'quvchilar mustaqilligi va o'quv faoliyatini boshqarish emas, balki hamkorlikda tashkil etish, ta'lim olishda majburlash emas, balki o'quvchilarni ishontirish, biror-bir faoliyatni amalga oshirish buyruq orqali emas, balki shu faoliyatni samarali tashkil etish, shaxsning ehtiyoji, qiziqishi, imkoniyatlarini chegaralash emas, balki erkin tanlash huquqini berish sanaladi.

Yangi munosabatlarning asosiy mohiyati, an'anaviy ta'limda ko'zda tutilgan natijalarni bermayotgan majburan o'qitishdan voz kechish va uning o'rniga:

- o'zaro ishonchga asoslangan talabchanlik;

- ta'lim jarayonini samarali tashkil etish orqali o'quvchilar o'rtasida qiziqish uyg'otish va ongli intizomni vujudga keltirish;

- o'quvchilarni muvafaqqiyatli bilim olishga yo'llovchi hamkorlikning paydo bo'lishi;

- muntazam faoliyatning tashkil etilishi;

- tegishli talablarni jamoa orqali qo'llashni amalga oshirish muhim sanaladi.

Noan'anaviy ta'lim jarayonini tashkil etishda:

- o'rta saviyali o'quvchiga nisbatan mo'ljal olishdan voz kechish;

- o'quvchilarning eng yaxshi sifatlarini aniqlash va rivojlantirish;

- ta'limda psixologik-pedagogik diagnostikani qo'llash orqali o'quvchilarning qiziqishi, ehtiyoji, qobiliyati, shaxsiy sifatleri, aqliy faoliyatning xususiyatlarini aniqlash;

- o'quvchilar o'zlashtiradigan bilim, ko'nikma va malakalar dinamikasini tasavvur qilish;

- o'quvchi shaxsi rivojlanishining dasturiga tegishli o'zgartirishlar kiritish talab etiladi.

NOAN'ANAVIY DARS TURLARI



NOAN`ANAVIY TEXNOLOGIK YONDASHUVNING AN`ANAVIY TA`LIMDAN FARQI (2 jadval.)

Noan`anaviy texnologik yondashuvga asoslangan ta`lim berish	An`anaviy ta`lim berish
1. Kontseptual asoslar	
<p>Shaxsga yo`naltirilgan ta`lim va ta`limga tizimli – harakatli yondashishga asoslanadi. Ta`lim oluvchi shaxsi – ta`lim jarayonining markaziy egasi. Munosabatlarning inson-parvarligi va erkinligi, o`qishga majburlashdan voz kechish.</p> <p>Tabaqalashtirish va individuallashtirish; umumiy ta`lim oluvchining aqliy rivojlanish darajasi va ushbu fanni ular tomonidan o`zlashtirilishini hisobga olish.</p> <p>O`rganish–aqliy rivojlanish, mustaqil egallash jarayoni va asosiysi ta`lim oluvchilarning egallagan bilimlarini qo`llay olishlari; xususiyati bo`yicha muammoli, izlanuvchan, ijodiy.</p> <p>Ta`limning yangi paradigmasi, ya`ni: ta`lim oluvchi – kitob – ta`lim beruvchi</p>	<p>Ta`lim oluvchiga yondashish bo`yicha nazoratli-nasihatgo`y, egallab bo`lingan usul bo`yicha qayta tiklashli, ta`lim oluvchilarning tashabbuskorligi va mustaqilligini bostiruvchi, qat`iy tashkil etilgan bo`ysinish asosidagi (avtoritar) ta`lim.</p> <p>O`rta ta`lim oluvchi imkoniyatlari, ularni o`zlashtirish va bilimlarni qayta tiklashlariga yo`naltirilgan ta`lim.</p> <p>O`rganish – eslab qolish vazifasi, dars berish esa – asosiy faoliyat.</p> <p>Ta`lim paradigmasi: ta`lim beruvchi – kitob – ta`lim oluvchi</p>
2. Ta`lim oluvchining tutgan o`rni va vazifasi	
<p>Mustaqil bilish faoliyatini olib boruvchi, ta`lim jarayonining teng huquqli sub`ekti.</p> <p>Bilim – shaxsiy muammolarni hal etish vositasi.</p> <p>Xato qilishga haqqi bor – xatolarda o`rganadi</p>	<p>Ta`lim beruvchi ta`siridagi bo`ysunuvchi ob`ekt.</p> <p>Bilim –birdan-bir maqsad.</p> <p>Xato – jazolanadi.</p>
3. Ta`lim beruvchining tutgan o`rni va vazifasi	
<p>Ta`lim oluvchilarning mustaqil bilish faoliyatlari tashkilotchisi, ularning mas`ul maslahatchisi va yordamchisi. Ta`lim oluvchilarning nafaqat BMK nazoratini, balki ehtimoliy chetga chiqish o`z vaqtida to`g`rilash maqsadida ularning ta`lim berganlik tashhisini ta`minlaydi</p>	<p>Kitob bilan birga, yagona tashabbuskor shaxs – bilish sub`ektini nazorat qiluvchi, asosiy bilim manbai: boshqaruv organlarining rahbarlik buyruqlarining bajaruvchisi</p>
4. Ta`lim berish va o`rganish usullari	
<p>Muammolarni izlash, bilimlarni amaliyotda qo`llashga yo`naltirilgan, muammoli vaziyatlarni yaratish, faol bilishning ijodiy tadqiqotchilik faoliyatiga asoslangan faol ta`lim berish usullari</p>	<p>Tayyor bilimlarni og`zaki bayon qilish orqali bildirish. Oddiydan umumiylikka induktiv mantiqqa, mexanik eslab qolishga, qayta tiklash (o`zgarishsiz qaytarish)</p>

	bayoniga asoslangan, namuna bo'yicha ta'lim berish. Natijada ta'lim oluvchilarni sustkashlikka, nutq faoliyati bo'shashigacha olib keladi
5. Ta'lim berish vositalari	
An'anaviy vositalar bilan bir qatorda – axborotli texnologiyalar. O'quv materiallar ta'lim oluvchilar tomonidan bilimlarni mustaqil izlash uchun ishlatiladi	Ta'lim beruvchi so'zlari, ko'rgazmali va texnik vositalar. Murakkab (texnik) tilda yozilgan o'quv adabiyotlar, shu bois qabul qilishga murakkab; asosan uy vazifasi uchun qo'llaniladi.
6. Ta'lim berishni tashkillashtirish shakllari	
<p>Maqsadni belgilash: yakuniy o'quv natijalarining mezonli cheklanuvchidek, tashhisiy belgilangan maqsadlarni kafolatli erishishga yo'naltirish; olingan natijalar sifatini o'lchashning mezon va ko'rsatmalari mavjud.</p> <p>Nafaqat bashorat qiladi, balki pedagogik faoliyatni loyihalaydi va rejalashtiradi, shu bilan birga o'quv faoliyatining mazmuni va tuzilishini ishlab chiqadi, ta'lim oluvchilarni mustaqil o'quv-bilish faoliyatlarini bashorat qilayotganlarida, rejalashtirayotganlarida va tashkillashtirayotganlarida ularning tashabbuslarini oshiradi va qo'llab-quvvatlaydi.</p> <p>Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchi bilan ta'lim jarayonini o'quv diologidek tuzadi; ularda mustaqillikka intilishni rivojlantirish uchun, o'zi mustaqil ta'lim olishga tayyorgarlik, o'z-o'zini bilishi, o'z-o'zini amalga oshirish va o'z-o'zini taqdim eta olish qobiliyatlari uchun sharoit yaratadi.</p> <p>Nafaqat BMK nazorati, balki ta'lim berilganlik, rivojlanish, tarbiyalanganlikning monitoringi.</p> <p>Ta'lim beruvchi umumiy natijani baholaydi va ta'lim oluvchi bilan hamkorlikdagi mehnatlarini tahlil qiladi: ko'zlanayotgan natijalarga nima uchun erishilmadi yoki qisman erishildi</p>	<p>Ommaviy ta'lim berish: ta'lim oluvchilar bir-birlari bilan ajralgan munosabatda; mustaqillikning etish-asligi.</p> <p>Ta'lim beruvchi faqat pedagogik faoliyatni rejalashtiradi.</p> <p>O'zlashtirilgan BMK nazorati.</p> <p>Miqdoriy baho - baholash-majbu-riylik vositasi hisoblanadi, ta'lim beruvchining ta'lim oluvchi ustidan xukmronlik quroli bo'lib xizmat qiladi: ta'lim oluvchi faoliyatining yakuniy tahlili va baholanishi</p>

II BOB. NOAN`ANAVIY DARSNI TASHKIL QILISHNING SHAKLLARI, METODLARI, VOSITALARI

2.1. Noan`anaviy dars va o`qituvchi faoliyati.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini ro'yobga chiqarishning so'ngi bosqichida ko'zda tutilgan sifat va samaradorlik ko'rsatkichlarga erishish uchun ta'lim- tarbiya jarayonini tashkil etishni modernizatsiya qilish va uni innovatsion shakl va usullarini amaliyotga joriy qilish shu kunning kechiktirib bo'lmaz dolzarb masalasi bo'lib qolmoqda. Shuning uchun pedagogik texnologiyalarni ob'ekti, predmeti, maqsad va vazifalari nimalardan iborat? Uning qanday turlari, tarkibiy tuzilishi, jarayonni tashkil etish, shakl va vositalari ilgari mavjud o'qitish metodikasidan nimasi bilan farqlanadi, uni monitoringi va baholash tizimi qanday olib boriladi kabi savollarga javob berishga to'g'ri keladi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturni amalga oshirishning asosiy talablari bo'lgan o'quv rejalari, dasturlari, yangi avlod darsliklari, davlat ta'lim standartlari fanning so'nggi yutuqlari asosida qanchalik takomillashtirilmasin, moddiy bazalari mustaxkamlanmasin, modernizatsiya qilinmasin, olinadigan piravard natija olish oxiri oqibat professor- o'qituvchilarning kasbiy bilimiga, ko'nikma, malakasiga, ijodkorligiga, pedagogik mahoratiga, intellektual salohiyatiga, talabaning ma'suliyatiga va faolligiga bog'liq bo'lib qolaveradi.

Sir emaski ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligini ta'minlash talabaning o'quv mazmunini o'zlashtirishga yo'naltirilgan mustaqil dastur asosida mutoala bilan tinimsiz shug'unlanishi, mustaqil fikrlay olishi, o'z pozitsiyasini ximoya qilishi, tafakkur faoliyati ustida tinmay izlanishini taqozo etadi.

Talabalar bakalavrlik darajasini olgandan keyin o'z egallagan kasbiga yangicha ma'suliyatli munosabatda bo'lishi, o'quv jarayonida islohotlarni olib borish, zamonaiy texnologiyalar asosida mashg'ulotlarni olib borish malakalariga ega bo'lishiga erishish zarur.

Shuning uchun oliy ta'limda faoliyat olib boruvchi professor-o'qituvchi o'z fani bo'yicha mashg'ulotlarni texnologiyalashtirish, algoritmlash, loyixalash,

modullashtirish, texnologik xaritalarni tuza olish va ular asosida ishlash malakasini egallab olishi zarur.

Ta'lim jarayonini olib borganda pedagogik motivlar, extiyojlar, manfaatdorlik, maqsadlarni ko'zda tutish muhim hisoblanadi.

Pedagogik adabiyotlarni taxlil qilish shuni ko'rsatmoqdaki, aksariyat oliy ta'lim muassasalarida modulli va algoritmlar asosida mashg'ulotlarni joriy qilish keng tus olmoqda.

Modul-pedagogik texnologiyani tashkil tarkibiy bo'laklarni tashkil etuvchi tushuncha.

Umuman pedagogik texnologiya asosini modullar va algoritmlar belgilaydi.

Pedagogik texnologiyaning eng kichik modullari eng asosiy tushuncha bo'lib, ular go'yoki pedagogik texnologiyani hosil qiluvchi «g'ishtcha»lar vazifasini bajarishi bilan asosiy ahamiyatga ega.

Algoritm- pedagogik texnologiya tarkibiy bo'laklari, modullari o'zaro joylashuvining ketma-ketligini avvaldan belgilangan tartibini (qoidasini) bildiradi.

Shunday qilib, pedagogik texnologiyaning asosiy jarayoni: «Tashkil etish, hamkorlikda ish yuritish, takomillashtirish, taxlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish, xulosa chiqarish, boshqarish, nazorat etish, baholash kabilarni o'z ichiga oladi».

Texnologiyalarning **ob`ekti**- ta'lim mazmunini texnologiyalashtirish jarayonidir. Texnologiyani **predmeti**-ta'lim jarayonini piravard samarali natijasini olish shakli, usul va vositalarini belgilashdan iborat.

Texnologiyani **maqsadi**-ta'lim mazmunini modullashtirish, algoritmlash loyixalashtirish asosida talabani shaxsiy faolligi ishtirokida Davlat ta'lim standartlarini to'la o'zlashtirishni kafolatlashdan iborat.

Xar bir professor-o'qituvchi pedagogik texnologiyani o'z mashg'ulotlariga qo'llash uchun quyidagi texnologik xaritasidan foydalanishi mumkin:

- Mavzuni aniqlash;
- Maqsadni aniqlash;
- Mavzu yuzasidan o'zlashtirishi lozim bo'lgan kalit so'zlarni

belgilash;

- Vazifalar 1,2,3.... belgilab olish;
- Texnologik jarayonni tashkil etish:

1. YAKka ishlash;

2. Juft bo‘lib ishlash;

3. Kichik guruxlarda ishlash;

4. Katta guruxlarda munozara, savol javob, debat va xokazolar: (Mavzu

mazmuni va vazifalar tabiyatiga moslari tanlab olinadi)

1. Reglament;

2. Baholash;

3. Xulosalar.

Tayyor xoldagi texnologiyalar avval tajriba- sinovdan o‘tgan yuqori ko‘rsatgich berganlari istemolga kiritiladi. Bu esa pedagogik jarayonni modernizatsiya qilish asosida pedagogik tizimni yangilash asosida kechadi.

Keyingi vaqtlarda oliy o‘quv yurtlarida mashg‘ulotlarni loyixalashtirish asosida tashkil etish ham keng tus olmoqda.

Mashg‘ulotlarni loyixalashtirishda xar bir professor-o‘qituvchi oldida bir savol ko‘ndalang turishi kerak. YA’ni xar bir mashg‘ulotning maqsadi, vazifasi, ketma ketligi, izchilligi, talabani faollashtirish uchun nima qilish kerak va uni amalga oshirishda quyidagilarga rioya qilish kerak:

- O‘quv materiallarini tanlash, uni didaktik talablar asosida tashkil etish;

- Foydalaniladigan metod va jarayonlarni jixozlash;

- O‘z faoliyatini tashkil etish, talaba shaxsi bilan va guruxlarda ish faoliyatini tashkil etish.

Loyixalar asosida o‘quv jarayonini tashkil etishda, mashg‘ulotni olib boruvchi professor-o‘qituvchi fidokorlik, ijodkorlik namunasini ko‘rsatishi, talabani ruxiy qo‘llab quvatlash, ularni extiyoj, qiziqishlar asosida piravard maqsadga erishishga xarakat qilish. Quyida biz mashg‘ulot jarayonini loyixa asosida tashkil etish bosqichlarini keltiramiz:

- Mavzuga oid materiallarni to‘plash;
- Ta’lim maqsadi va vazifalar mazmunini belgilash;
- Ta’lim shakli, metodi va vositalarini tanlash;
- Loyihada ko‘zda tutilgan tushuncha, bilim, ko‘nikma malakalarni o‘zlashtirish jarayonida sarflanadigan vaqt birligini hisobga olish;
- Har bir bosqich natijalarini olish uchun mashq va misollar tizimini ishlab chiqish;
- Mashg‘ulotni nazariy jihatdan olib borish uchun testlar, savollarni ishlab chiqish;
- Loyixani mashg‘ulot jarayoniga tatbiq etish;
- Mashg‘ulot jarayonini olib borish va yakunlash, xulosalar chiqarish mexanizmini yaratish.

YUqorida bayon etilganlar asosida quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin. Loyiha mazmunini ta’lim jarayonida to‘la o‘zlashtirib olishini kafolatlaydi. Mavzularda ko‘zda tutilgan bilim, ko‘nikma, malakalarni ta’lim standartlarini o‘zlashtirib olishga erishiladi.

Pedagogik texnologiyalarni amaliyotga qo‘llashda talabani shaxsi va uning qadri ta’lim jarayoni markazida turishi kerak. Iloji boricha jarayonlar individuallashtirgan tabaqalashtirgan holda olib boriladi.

Bunda asosiy e’tibor talaba faolligini oshirish, mustaqil fikrlashga o‘rgatish, ijodiy, mantiqiy fikrlay olish ko‘nikmasini shakllantirish, uni mustaqilligi, erkinligini ta’min etish, talabani extiyoj, qiziqishlari asosida ish yuritish, talabani ichki imkoniyatlarini ishga solish, o‘z-o‘zini tarbiyalash, mustaqil bilim olish ko‘nikma va malakasini oshirishni hosil qilishga karatmog‘i zarurdir.

Bu zaylda tashkil etilgan ta’lim o‘qituvchi va o‘quvchiga doimiy ilmiy ijodiy, uzluksiz o‘z ustida ishlash imkoniyatini beradi. Bunda xolatning ta’lim jarayoniga, uning ijodiy muhitini yaratadi va sifat samaradorlik kafolatlanadi. Interfaol ta’lim zamonaviy darsdan boshlanadi. Boshqacha qilib aytganda darslarni tashkil etishga mas’uliyat bilan yondashadigan yuqori kasbiy malakali va bilimdon metodik

mahotarga ega, zamonaviy interfaol texnologiyalarni mukammal o'zlashtirib olgan innovatsion faoliyatda ta'limni tashkil etadigan o'quvchilarga talab oshib

bormoqda. Interfaol ta'limda jarayon individuallashtirilgan holda kechadi. Ta'lim jarayonida o'quv faol ishtirok etadi. O'quv bilim jarayoniga katta hissa qo'shadi. Jarayonni olib borishda o'quvchilarning shaxsiy xususiyat tayyorgarlik darajasi hisobga olinadi.

Interfaol asosda dars jarayonini tashkil etilganda:

- o'quvchining o'zaro faolligini oshadi;

- o'quvchida o'quv reja, dastur, darsliklar, standart me'yorlar asosida mavzu mazmunini o'zlashtirib olish malakalari shakllanadi;

- ta'lim mazmunini, matni, mashq masalalarini mutaola qilish, ishlash, o'zlashtirish ko'nikmalari o'qituvchini kundalik shaxsiy ishlariga aylanadi, ularni mas'uliyati oshadi;

- o'quvchi erkin fikr bildirishi, o'z shaxsiy fikrini himoya qilish, isbotlay olishga odatlanadi;

- eng muhimi o'quv jarayonida didaktik motivlar vujudga keladi. O'z navbatida darsni qiziqarli bo'lishiga olib keladi. YA'ni bu jarayonda o'quvchini ehtiyoji, xohish, istaklari qondiriladi. Eng muhimi o'quv materialini o'zlashtirish kafolatlanadi.

- o'qitish usullari ta'lim jarayonida turli xil ko'rinishlarda (yakka, juft, kichik guruh va katta guruhlarda) kechadi.

Bunday tarzda tashkil etilgan darslarda o'quvchi ta'lim mazmunini o'zlashtiribgina qolmay, balki o'zining mehnat va tanqidiy fikrlarini ham rivojlantiradi.

Nihoyat o'quvchi o'z kuch va imkoniyatlariga ishonch bilan qaraydi.

Bizga ma'lumki, ta'lim modeli o'z ichiga:

- passiv ta'lim

- faol ta'lim

- interfaol ta'limlarni oladi. Shulardan interfaol ta'lim esa o'z

navbatida:

- muammoli ta'lim
- loyiha asosidagi ta'lim
- kreativ ta'lim
- evristik ta'lim
- faol o'yin asosidagi ta'lim

AKT ta'limlarini alohida, shu bilan birga keyingi vaqtlarda, masofali ta'lim, media ta'lim, onlayin ta'limdagi ta'limlar xam ta'lim jarayoniga kirib kelmoqda.

YUqorida nomlari keltirilgan ta'lim usullarida o'zaro faollik, harakat, ta'sirchaklik, o'quvchi va o'qituvchi muloqatlarida sodir bo'ladi. Interfaol ta'limning bosh asosiy maqsadi o'quv jarayonida o'quvchi uchun eng qulay vaziyat yaratish orqali o'quvchining faol, erkin fikr yuritishga muhit yaratadi. U o'zini intellektual salohiyatini to'la namoyon etadi va o'quv sifati va samaradorligini oshiradi.

Boshlang'ich maktablarda interfaol pedagogik didaktik o'yinlar keng qo'llaniladi;

Ishchanlik o'yinlari darsi – dars mavzusi bo'yicha masalalarni o'rganishda o'quvchilarni oldindan ma'lum rollarni taqsimlash va dars jarayonida shu rolni bajarishlarini tashkil etish asosida bilimlarini mustaxkamlash darsi.

Teatrlashtirilgan dars – dars mavzusi bilan bog'liq sahna ko'rinishlari tashkil etish orqali dars mavzusi bo'yicha guruhga aniq ma'lumotlar berish darsi.

Komp'yuter darsi – tegishli o'quv predmeti bo'yicha dars mavzusiga doir komp'yuter materiallari, mul'timediya, sirdan o'quv kursi va boshqalar vositasidagi o'tiladigan darslar.

Kim oshdi savdosi darsi – elementlarini ayrim bo'shliqlari bo'yicha bilimlarni har bir o'quvchi qanchalik ko'p bilishini namoyish etish darsi.

YArmaka darsi – dars mavzusi bo'laklar bo'yicha oldindan o'zlashtirlar o'quvchilarning o'zaro muloqoti asosida sinfga qiziqarli ma'lumotlar berish orqali o'tiladigan dars.

Formulalar darsi – o'quvchilarning formulalarni puxta o'zlashtirishlari bo'yicha turli o'yinlar shaklida mashqlar o'tkazish darsi.

O‘yin darsi – dars mavzusiga mos o‘yin orqali o‘quvchilarning o‘zlashtirilganliklarini tashkil qilish darsi.

«Sud» darsi – o‘quvchilar bilan dars mavzusiga mos «sud» jarayonini tashkil etish orqali yangi mavzuni tushuntirish darsi.

Kontsert darsi – dars mavzusini sahnalashtirgan holdagi kontsert shaklda ifodalash mashqlari bo‘lib, o‘quvchilarni faollashtirish va bilimlarini mustaxkamlash darsi.

«Tergovni bilimlardan olib boradi» darsi – dars mavzusini oldindan puxta o‘rgangan o‘quvchilar sudlashadi, qiziqarli savol-javoblar, texnologiyalar asosida isbotlab tushuntirish mashqlari bo‘lib, ularning eslab qolishlariga qulaylik tug‘diradi.

Integral dars – bir nechta predmetlarga doir va integratsiyalash uchun qulay bo‘lgan mavzular bo‘yicha tashkil qilingan dars bo‘lib, o‘quvchilarni turli predmetlarga qiziqishlari ortadi, faollik muhiti paydo bo‘ladi.

Mo‘jizalar maydoni darsi – o‘quvchi-talaba bilan o‘tkaziladigan qiziqarli o‘yin bo‘lib, turli savollarga belgilangan vaqt orasida to‘g‘ri javoblar topish va g‘oliblarni rag‘batlantirish orqali o‘quvchi-talabalarga erkin fikrlash, topqirlik, ziyraklik, zukkolik va bilimlarni atroflicha kengaytirish imkoniyatlariga ega bo‘ladilar.

YUqori sinf o‘quvchilari va akademik litsey va kasb-xunar kolleji talabalari bilan yangi texnologiyalarni o‘rganishda o‘zlashtirish va o‘quv jarayoniga qo‘llashda ko‘pgina trening mashg‘ulotlar tashkil etiladi. Biz quyida treninglarni tayyorlash va o‘tkazish haqida fikr yuritamiz.

Ta‘lim sifati va samaradorligini oshirish va ta‘minlashda trenerlarning ish faoliyatiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir.

Sir emaski, interfaol metodlarni maktab ta‘lim jarayoniga kiritib avval ishni o‘qituvchilarni shu jarayonga tayyorlash va malakasini oshirishdan boshlanadi. Uning uchun o‘qituvchilarni tayyorlash interfaol seminarlar, trening maxsus maqsadli qisqa kurslarida, ayrim hollarda shaxsiy dastur asosidagi mustaqil malakasini oshirish jarayonida amalga oshirish yaxshi natijalar beradi.

2.2. Noan`anaviy dars shakllari, metodlari, vositalari.

Hozirgi zamon ta'lim usullari xilma-xil, ko'p qirrali bo'lib, o'qituvchilar ana shu usullardan mashg'ulotlardan samarali foydalana olish mahoratlariga bog'liq. Noan`anaviy darslarda quyidagi ta'lim vositalari qo'llanilishi lozim:

Ta'lim vositalari - o'quv materialini ko'rgazmali taqdim etish va shu bilan birga o'qitish samaradorligini oshiruvchi yordamchi materiallar hisoblanadi.

Ta'limning texnik vositalari (TTV) - o'quv materialini ko'rgazmali namoyish etishga, uni tizimli etkazib berishga yordam beradi; talabalarga o'quv materialini tushunishlariga va yaxshi eslab qolishlariga imkon beradi.(Diaproektor, grafoproektor, doska-bloknot, doska-stend, flipchart,videofil`mlar yozuv taxtasi).

Yordamchi ta'lim vositalari (YOTV) – grafiklar, chizmalar, namunalar va h.k. boshq.

O'quv - uslubiy materiallar (O'UM) - o'quv materiallar, o'zlashtirilgan o'quv materiallarini mustahkamlash uchun mashqlar. Bular talabalarning mustaqil ishlarini faollashtirishga yordam beradilar. Ta'lim vositalarini tanlashni aniqlovchi omillar:

- Maqsadni belgilash;
- O'quv axborot mazmuni;
- Ta'lim vositalari;
- Etakchi bilim manbai;
- O'quv materialining yangiligi va murakkabligi.

1. O'quvchilar shaxsini, ularning rivojlanishi va qobiliyatini hisobga olgan xolda guruhlariga ajratish. (guruhlariga ajratish ikki yo'l bilan boradi; birinchi - o'quvchilarning o'z ixtiyorlari bilan guruhlanish, ikkinchi - o'qituvchi talabi bo'yicha guruhlanish).

2. Didaktik materiallar test, varaqalar, o'quv vazifalari, o'quv topshiriqlarini tayyorlash. Ushbu didaktik materiallarning o'quvchilar mustaqil ijodiy ishga qay darajada mosligini aniqlash (testlar yordamida).

3. O'quvchilar guruhining mustaqil ijodiy faoliyatiga tayyorgarlik darajasi.

4. O'quvchining o'quv guruhlarga aloqadorlikka qo'shgan hissasi.
5. Guruhdagi har bir o'quvchining samaradorlikka qo'shgan hissasi.
6. O'quvchi va o'qituvchi orasidagi o'zaro munosabat (hamkorlik, hamjihatlik, do'stona tanqidiy).
7. O'qituvchining o'quvchilar guruhi yutuqlariga munosabati.
8. Guruhlar bilan ishlashda o'quvchi bilan muloqotda bo'lish.
9. O'quvchilarning dars jarayonidagi faoliyatini nazorat qilish va baholash (mavzuni to'liq so'rash, qisman so'rash, ma'lumot tarzida so'rash, algoritmdan foydalannsh, muammoni hal qilish, ijodiy topshiriqlarni bajarish).
10. Darsni yakunlash va guruh o'quvchiliri xamda yakka tartibda qatnashishini tahlil qilish.

Quyida asosiy kasbiy mezonlar berilgan bo'lib, ulardan foydalanishni tavsiya etamiz.

Ta'limimiz tajribasida vujudga kelgan noan'anaviy usullar

Grafikli organayzerlar (tashkil etuvchi) – fikriy jarayonlarni ko'rgazmali taqdim etish vositasi. Ma'lumotlarni tarkiblashtirish va tarkibiy bulib chiqish, urganilayotgan tushunchalar (vokea va xodisalar, mavzular) urtasidagi aloka va uzaro bogliklikni urnatish usul va vositalari: Klaster, Toifalash jadvali, Insert, B/B/B jadvali

Ma'lumotlarni taxlil kilish, solishtirish va taqqoslash usul va vositalari: T-jadvali, Venna diagrammasi

Muammoni aniklash, uni xal etish, taxlil qilish va rejalashtirish usullari va vositalari: «Nima uchun?», «Balik skeleti», «Piramida», «Nilufar guli» sxemalari, «Kanday?» ierarxik diagrammasi, «Kaskad» tarkibiy-mantikiy sxema Klaster (Klaster-tutam, bog'lam)-axborot xaritasini tuzish yo'li- barcha tuzilmaning mohiyatini markazlashtirish va aniqlash uchun qandaydir biror asosiy omil atrofida g'oyalarni yig'ish.

Bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo'yicha yangi o'zaro bog'lanishli tasavvurlarni erkin va ochiq jalb qilishga yordam beradi

Klasterni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. YOzuv taxtasi yoki katta qog'oz varag'ining o'rtasiga asosiy so'z yoki 1-2 so'zdan iborat bo'lgan mavzu nomi yoziladi. Birikma bo'yicha asosiy so'z bilan uning yonida mavzu bilan bog'liq so'z va takliflar kichik doirachalar «yo'ldoshlar» yozib qo'shiladi. Ularni «asosiy» so'z bilan chiziqlar yordamida birlashtiriladi. Bu «yo'ldoshlarda» «kichik yo'ldoshlar» bo'lishi mumkin. YOzuv ajratilgan vaqt davomida yoki g'oyalar tugagunicha davom etishi mumkin. Muhokama uchun klasterlar bilan almashinadilar.

Klasterni tuzish qoidasi

1. Aqlingizga nima kelsa, barchasini yozing. G'oyalari sifatini muhokama qilmang faqat ularni yozing.
2. Xatni to'xtatadigan imlo xatolariga va boshqa omillarga e'tibor bermang.
3. Ajratilgan vaqt tugaguncha yozishni to'xtatmang. Agarda aqlingizda g'oyalar kelishi birdan to'xtasa, u holda qachonki yangi g'oyalar kelmaguncha qog'ozga rasm chizib turing.

B/BX/B JADVALI- Bilaman/ Bilishni hohlayman/ Bilib oldim.

Mavzu, matn, bo'lim bo'yicha izlanuvchilikni olib borish imkonini beradi.

Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Jadvalni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida /kichik guruhlarda jadvalni rasmiylashtiradilar.

«Mavzu bo'yicha nimalarni bilasiz» va «Nimani bilishni xohlaysiz» degan savollarga javob beradilar (oldindagi ish uchun yo'naltiruvchi asos yaratiladi). Jadvalning 1 va 2 bo'limlarini to'ldiradilar. Ma'ruzani tinglaydilar, mustaqil o'qiydilar.

Venna diagrammasi - 2 va 3 jihatlarni hamda umumiy tomonlarini solishtirish yoki taqqoslash yoki qarama-qarshi qo'yish uchun qo'llaniladi.

Tizimli fikrlash, solishtirish, taqqoslash, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Diagramma Venna tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida kichik gurhlarda diagramma Vennani tuzadilar va kesishmaydigan joylarni (x) to'ldiradilar

Juftliklarga birlashadilar, o'zlarining diagrammalarini taqqoslaydilar va to'ldiradilar

Doiralarni kesishuvchi joyida, ikki/uch doiralar uchun umumiy bo'lgan, ma'lumotlar ro'yxatini tuzadi. «Nima uchun» sxemasi «Nima uchun» sxemasi-muammoning dastlabki sabablarini aniqlash bo'yicha fikrlar zanjiri.

Tizimli, ijodiy, tahliliy fikrlashni rivojlantiradi va faollashtiradi.

«Nima uchun» sxemasini tuzish qoidasi bilan tanishadilar.

Alohida/kichik gurhlarda muammoni ifodalaydilar. «Nima uchun» so'rog'ini beradilar va chizadilar, shu savolga javob yozadilar. Bu jarayon muammoning dastlabki sababi aniqlanmagunicha davom etadi

Kichik guruhlariga birlashadilar, taqqoslaydilar, o'zlarining chizmalarini to'ldiradilar. Umumiy chizmaga keltiradilar. 1. Aylana yoki to'g'ri to'rtburchak shakllardan foydalanishni o'zingiz tanlaysiz.

2. CHizmaning ko'rinishini - mulohazalar zanjirini to'g'ri chiziqlimi, to'g'ri chizikli emasligini o'zingiz tanlaysiz.

3. Yo'nalish ko'rsatkichlari sizning qidiruvlaringizni: dastlabki holatdan izlanishgacha bo'lgan yo'nalishingizni belgilaydi.

«Baliq skeleti» chizmasi Bir qator muammolarni tasvirlash va uni echish imkonini beradi.

Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi CHizmani tuzish qoidasi bilan tanishadilar.

Alohida/kichik gurhlarda yuqori «suyagida» kichik muammoni ifodalaydi, pastda esa, ushbu kichik muammolar mavjudligini tasdiqlovchi dalillar yoziladi. Kichik guruhlariga birlashadilar, taqqoslaydilar, o'zlarining chizmalarini to'ldiradilar. Umumiy chizmaga keltiradilar. Ish

natijalarining taqdimoti.

Grafikli organezerlardan tashqari biz quyidagi interafola darslarni keltirib o'tamiz.

1. Konferentsiya darsi.
2. Matbuot konferentsiyasi darsi.
3. Uchrashuv darsi.
4. Musobaqa darsi.
5. Estafeta darsi.
6. Simpozium darsi.
7. Seminar darsi.
8. Sinov darsi.
9. «Kim oshdi savdosi» darsi.
10. «Zakovat» darsi.
11. Ijodiy darsi.
12. Sahnalashtirilgan darsi.
13. Kontsert darsi.
14. «Loto» darsi.
15. «Bayram» darsi.
16. O'zaro o'qitib o'rganish darsi.
17. Dala darsi.
18. «Ishchan o'yinlar» darsi.
19. Mushoira darsi
20. Ijodiy ishni himoya qilish darsi.
21. Debat darsi.
22. «Ta'yanch» signallarga asoslangan darsi.
23. Sud darsi.
24. Xayoliy sayohat darsi.
25. «Mujizalar maydoni» darsi.

«Zakovat darsi»

Bu dars orqali o'quvchilarni intellektual rivojlantirish ancha samarali hisoblanadi. Unda matematika, fizika, informatika, kimyo, biologiya, geografiya, til va boshqa

barcha o‘quv fanlarida samarali foydalanish mumkin. Odatda, ma’lum fanning muayyan bob yoki bo‘limi yakunlangach bunday darslarni tashkil etib o‘tkazish ancha samarali hisoblanadi. Darsni o‘tkazish tartibi quyidagicha:

I. Sinfidagi bilimli, zukko o‘quvchilardan 6 nafari tanlanib «zakovat» klubi tashkil etiladi.

II. Boshlovchi (a’lochi o‘quvchi yoki fan o‘qituvchisi) 10 kun oldin sinfdagi xar bir o‘quvchidan dars mavzulariga mos 2 tadan qiziqarli savol-topshiriqlari tuzdirib oladi va topshiriqlarini to‘plashni tashkil etadi. Topshiriq mazmunining maxfiyligi ta’minlanishi zarur. Tushgan savollardan 11 tasi saralanib tanlanadi.

III. «Zakovat» darsida boshlovchining yordamchisi konvertlarni raqamlab chiqadi. Ishtirokchilar navbat bilan konvertlarni tortib 1 daqiqa ichida savollarga umumguruhda (6 kishi) nomidan yakuniy javob beradilar.

Bu o‘yinda komanda a’zolari yoki tomoshabinlar g‘olib bo‘lishi mumkin. 3 kishidan iborat hakamlar xay’ati, berilgan savollar xamda javoblarni baholab beradilar. Eng yaxshi savol ya’ni, eng zukko «zakovat» klubi ishtirokchisi qimmatbaho kitoblar bilan takdirlanib boriladi.

Musobaqa darsi

«Musoboqa dars» larini umumiy o‘rta ta’lim fanlarining barchasida qo‘llash samarali natija beradi. Odatda, bob bo‘limi yakuni bo‘yicha o‘tkaziladigan darslarda uni qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Bu darsni o‘tkazish tartibi quyidagicha bo‘ladi:

I. Sinfidagi o‘quvchilar qatoriga qarab 3 ta komandaga ajratiladi. Ularga nom qo‘yiladi. Emblema tayyorlanadi. Sardorlar tayyorlanadi.

II. Uch kishidan iborat hakamlar xayati tuziladi. O‘qituvchi dars mavzusi yuzasidan 60 ta savol va har bir savolga mos ravishda 60 ta yulduzcha tayyorlaydi. Har bir to‘g‘ri javobga 1 ta yulduzcha beriladi.

Darsning borishi quyidagicha amalga oshiriladi:

1) 5 minutlik musiqali pauza. Komandalar o‘z nomlarini izohlab, o‘z shiorlarini e’lon qiladilar.

2) Uy topshirig‘i (eng original bajarilgan uy ishi – 5 balgacha baholanadi).

3) O‘ylab top! Musobaqasi har bir komandaga 10 tadan qisqa, qiziqarli savol beriladi. To‘g‘ri javob yulduzcha bilan taqdirlanadi.

4) Sardorlar bahsi-mavzu yuzasidan 3 tadan qiziqarli savolllar beriladi, to‘g‘ri javob yulduzcha bilan taqdirlanadi.

5) Rassomlar konkursi – har komandadagi bir rassom o‘quvchi tanlanib, u dars mavzusiga atab rasm chizib xakamlar xay`atiga topshiradi.

6) Eng yaxshi she‘r tanlovi – dars mavzusiga atalgan eng yaxshi she‘r komanda tomonidan xakamlar xay`atiga taqdim qilinadi. Dars yakunlanib xulosa chiqariladi.

Ishchan o‘yinlar darsi

Bunday darslarni barcha o‘quv fanlaridan ukv yili oxirida, bulim yoki boblarni yakunlash jarayonida o‘tkazish tavsiya etiladi. Ishchan uyinlarni tashkil etish, ayniksa 10-11 sinflada juda yuqori samara beradi. Insoniyat oldida turgan global muammolar, iktisodiyot, til va madaniyat, inson solomatligi va hokazo dolzarb mavzular mazmunini yoritishda bunday darslarni qo‘llash muhim azamiyatga egadir. Ishchan uyinlarni o‘tkazish tartibi quyidagicha. Sinf o‘quvchilari maxsus guruhlarga ajratiladi.

1. Birinchi guruh – ilmiy g‘oyalar, ilmiy taxminlar turli sohalardagi ilmiy loyihalar tuzish, ularni mazmunini tushuntirish va himoya qilish bilan shug‘ullanadi (4-5 ta bilimdon o‘quvchidan iborat).

2. Ikkinchi guruh – yordamchi guruh bo‘lib, u kerakli ma‘lumotlarni to‘playdi. Qo‘shimcha adabiyotlarni, ma‘lumotnoma-spravochniklarni birinchi guruhga etkazib beradi (4-5 nafar o‘quvchidan iborat).

3. Uchinchi guruh – ijrochi guruh bo‘lib birinchi guruh bergan topshiriqlarni bajaradi va ijroning borishi haqida axborotlar tayyorlab beradi.

4. To‘rtinchi guruh – nazorat guruhi hisoblanib, ularga nazorat kartochkalari to‘ldiriladi va 1-chi xamda 3-chi guruhlarga berib turadi.

5. Ilmiy kengash guruhi – olimlar, iqtisodchilar, yuristlar, jurnalistlar, ommaviy axborot vositalari vakillari. Dars haqida yakuniy xulosa beradi.

5 «daqiqqa» usuli

Bu interfaol usulni xohlagan fanning xohlagan mavzusini o'rganish jarayonida qo'llash mumkin. O'quvchilarni stol atrofida shunday joylashtirish kerakki, bir-birining nima yozayotganligini ko'rmasin. Usulni o'qituvchi yoki a'lochi o'quvchi boshqarib borishi mumkin. U vazifani tanlaydi. O'quvchi 5 daqiqa ichida topshirilgan topshiriqni bajaradi. O'quvchilar yozishni bir vaqtda tugatishi shart. Geografiyadan joy nomlari, tarixdan xronologik sanalar, ona tili va adabiyotdan gap bo'laklari, matematika, fizika, kimyodan formulalar bo'lishi mumkin. Eng ko'p nom yozgan va uni izohlab bergan o'quvchi g'olib hisoblanadi.

Biz yuqorida ta'limning interfaol metodlari haqida to'xtalib o'tdik. Bu metodlardan boshlang'ich ta'limda o'qitiladigan fanlarda o'quvchilarning yosh xususiyatlariga qarab foydalansak maqsadga muvofiq bo'ladi.

2.3. Tajriba-sinov ishlarini o'tkazish va natijalar tahlili

Biz bitiruv malakaviy ishini yozishdan avval maktablarda kuzatish, tajriba-sinov ishlarini amalga oshirdik. Bunda biz o'z e'tiborimizni asosan, odobnoma darslarining qanday tashkil etilayotganligiga, unda o'qituvchi va o'quvchining ishtiroki, faolligi qanday ekanligiga, darsda qo'yilayotgan maqsad, vazifalar, ularning qay darajada amalga oshirilganligi, darsdan kutilayotgan natijalar, erishilayotgan yutuqlar qanday ekanligiga qaratdik. Shu asosda pedagogik amaliyot davomida boshlang'ich sinflarida tajriba-sinov ishlarini amalga oshirdik. Shu sinflardan biriga an'anaviy usulda, ikkinchisida esa pedagogik texnologiyalar asosida odobnoma dasturini tashkil etdik va natijalarni o'zaro taqqosladik. Bir xil vaqtda, bir xil yoshdagi o'quvchilar bilan birgalikda, bir xil mavzuda odobnoma, darslari tashkil etilgan bo'lsada, natijalar, o'zlashtirish ko'rsatkichlari turlicha bo'ldi: pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan odobnoma darslarida o'quvchilar faolligi va o'zlashtirish ko'rsatkichlari yuqori bo'ldi.

Hozir biz 3-»A» – sinfda pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan odobnoma darsidan namuna keltiramiz:

Mavzu: Vatan tuyg‘usi, milliy g‘urur va iftixor bilan yashagan bobolar.

Maqsad:

Vatan nima? Tushuntirish. Vatan tuyg‘usi, milliy g‘urur va iftixor haqida tushuncha berish. Vuyuk bobokalonlarimiz bilan tanishtirish.

Vatanni sevish va asrash rahida tarbiyalash.

Dars tun: Interfaol.

Usuli: Suhbat, klaster.

Ko‘rgazma:

- 1) Vatanimiz manzarasi tasvirlangan rasmlar.
- 2) Bobokalonimiz A.Navoiy, Beraniy, Ibn Sino va boshqa rasmlar.
- 3) Kostitusiya kitobi. Prezident I.A.Karimov rasmi.
- 4) Qog‘oz va flamaster.

Darsning borishi. 1)

Tashkiliy qism.

Salomlashish, davomatni aniqlash, dars maqsadini tushuntirish.

2) Dars mavzusini bayon qilish.

- Bolalar bugun biz 3 guruhga bo‘linib interfaol usulda dars o‘tamiz. Darsimizning mavzusi «Vatan tuyg‘usi, milliy g‘urur va iftixor bilan yashiyotgan bobolarimiz» haqida suhbatlashamiz.

1 guruh – Vatan nima?

2 guruh – Vatan tuyg‘usi, milliy g‘urur nima?

3 guruh – Bizning iftixorimiz bo‘lgan bobokalonlarimiz haqida o‘z fikrlarini bildiradilar. Guruhlarga qog‘oz, qalam beraman, ular klaster usulida o‘z fikrlarini chizib, so‘ng tushuntirib beradilar.

Bunda o‘quvchilar guruhlar ishida o‘zaro fikr almashadilar, bilimlarini jamlab, mustaqil fikrlarini bayon qila oladilar.

- O'quvchilar ma'lum vaqt ichida o'z mavzulari bo'yicha fikrlar to'plab, taqdimotga chiqadilar.

1 – guruh. Vatan – bu O'zbekistonim, kindik qonim to'kilgan joy, oilam, o'bek to'yolari, nahorgi oshlar, beshikda yotish, atlas, do'ppi kiygan vatandoshlar, gerbimizdagi paxta, bug'doy, tog', bog'lar haqida gapirib berdilar.

2 – guruh. Vatan tuyg'usi, milliy g'urur haqida gapirdilar. Men tirikligim bilan, o'zbekligim bilan g'ururlanaman. Vatanimni sevaman, ota-onamni, oilamni, maktabimni sevaman, armiyaga borib hizmat qilish, dushmanlardan asrash, dunyoga tanitish, go'zal shaharlarimiz, buyuk olimlarimiz borligi bilan g'ururlanishlarini aytdilar.

3– guruh. «Bizning iftixorimiz bobokalonlarimiz» bilan tanishdilar.

A.Navoiy – shoir, Ibn Sino – tabib, A.Temur – sohibqiron, xarbiy sarkarda. Olimlar, me'morlar, rassomlar o'z asarlari bilan o'chmas iz qoldirganliklari, o'zbek tili, o'zbek millatini dunyoga tanitganlari bilan faxrlanishlari va ularga o'xshab yashashga harakat qilishlari haqida gapirdilar.

Dars so'ngida bolalar fikrlarini umumlashtirib, darsni yakunladim.

- Bolalar birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov O'zbekiston Konstitusiyasining 13 yilligiga bag'ishlangan majlisida "Vatan tuyg'usi" haqida gapirib, "Har bir o'zbek farzandi o'z uyini, o'z vatanini sevishi, ardoqlashi va asrashi haqida" yana gapirib o'tdilar. O'zbek xalqi A.Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Elbek, Usmon Nosir kabi vatan ozodligi, erki yo'lida kurashib, qurbon bo'lganlar vatandoshlarini hech qachon unutmaydi. Prezidentimiz LA.Karimov o'z hayotini vatan, xalq, millat taraqqiyotiga bag'ishlagan ko'plab vatandoshlarimiz xotirasini yod etib, ularni "Buyuk xizmatlari uchun ordeni" bilan mukofotladi. Inson uchun Vatandagi hamma narsa: xalqi, eri, tarixi, ertangi kuni ham aziz bo'lishi kerak.

- Aziz bolajonlar siz ham Vatanimizni asl farzandlari bo'lib, aqlli, odobli, bilimli bo'lishga, Vatanni sevishga, ardoqlashga o'rganing.

Dars soʻngida aktiv qatnashgan oʻquvchilar baholanadi.

3-"V" sinfida otkazilgan odobnoma darsini keltiramiz.

Dars mavzusi: "Men kim bolmoqchiman?"

Darsning maqsadi: Dunyoda turli xil kasb-hunar borligi, "kasb" va "hunar" tushunchalari bir-birini toldiravchi alohida tushunchalar ekanligi, har bir inson ozi sevgan biror kasb yoki hunar bilan shug ullanishi zararlighi haqida yangi bilimlar berish va bu orqali oʻquvchilarda kasb-hunarga mehr-muhabbat uyg otish, boshqalar mehnatini hurmat qilishga oʻrgatish.

Dars jihozi: Kasb-hunarga oid maqollar yozilgan plakatlar, turli kasb egalari ish-faoliyati tasvirlangan rasm, "Mening fikrim" konvertchalari, "Orzular daraxti" korgazmali quroli, xattaxta, darslik.

Dars metodi: Suhbat-munozara.

Dars tun: yangi bilim beruvchi

Darsning borishi: Oqituvchi darsni quyidagi maqollarni oqish bilan boshlaydi:

Ilm ol, hunar tanla.

Hunar - hunardan unar.

Hunar - tunganmas boylik.

Hunarli kishi xor boʻlmas.

Hunarsiz kishining,


Mazasi yoʻq ishining.

Bolajonlar! Bugun biz kasb-hunar haqida gaplashmiz. Biz barchamiz kata boʻlganda qaysidir kasb egasi boʻlishni xohlaymiz, hozirdanoq «Kim boʻlsam ekan?!», - deb oʻylaymiz. Qani bolalar navbat bilan ayting-chi, Siz kata boʻlganingizda kim boʻlmoqchisiz?

- Oʻqituvchi
- Tikuvchi
- Haydovchi
- Quruvchi

- Shifokor . . .

(O'quvchilar navbat bilan birin-ketin javob berishadi, o'qituvchi javoblarni tinglab, kasb va hunar nomlarini «orzular daraxtiga yozadi»)



- Ha, bolajonlar, dunyoda kasb-hunarlar xilma-xildir. Ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga, qiyinchiliklarga ega. Endi biz shu kasb-hunarlar haqida yangi ma'lumotlar olamiz. (O'qituvchi darslik asosida mavzuni tushuntiradi).

- Bolajonlar, endi biz kasb va hunar bir-birini to'ldiruvchi ikki tushuncha ekanini, kasb-hunar qanday egallasnishi haqida bilimlarga ega bo'ldik...

(O‘qituvchi o‘quvchilar bilimni sinash maqsadida ularni ikki guruhga bo‘ladi. Ularni «Quruvchilar» va «Hunarmandlar» deb nomlaydi).

- Bolajonlar, endi «quruvchilar» jamoasi faqat kasb nomlarini, «Hunarmandlar» jamoasi esa hunar nomlarini yozsin. (O‘quvchilar Navbat bilan xattaxtada topshiriqni bajaradilar. Shundan so‘ng o‘qituvchi topshiriq to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri bajarilganligini tekshiradi va xatolar bo‘lsa uni topishni o‘quvchilarning o‘ziga topishiradi. So‘ngra jamoa sardorlari o‘zlari yozgan kasb yoki hunardan bittasini ta’riflab beradi).

- Bolalar, biz ko‘plab kasb-hunarlar borligini bildik, ular haqida tushunchalarga ega bo‘ldik va har birimiz biror kasb-hunar egasi bo‘lishni xohladik. Ayting-chi, biz o‘zimiz orzu qilgan kasb egasi bo‘lishimiz, biror hunar egasi bo‘lishimiz uchun hozirdanoq qanday ishlarni amalga oshirishimiz mumkin? (O‘qituvchi o‘quvchilarga «mening fikrim» kartochkalarini tarqatadi, o‘quvchilar esa unga o‘z ism-familiyasini va javoblarini yozishadi. O‘qituvchi o‘quvchilarning javoblari bilan birma-bir tanishadi va eng to‘g‘ri, muhim bo‘lgan javoblarni xattaxtada yozadi, o‘quvchilar fikrini unumlashtiradi)

- a’lo o‘qish;
- ko‘p kitoblar o‘qish;
- odobli bo‘lish;
- bo‘sh vaqtdan unumli foydalanish;
- mehnatga ko‘ngil qo‘yish;
- hunar o‘rganish...

Barakalla, juda to‘g‘ri, buning uchun biz, eng avvalo, odobi bo‘lishimiz, a’lo baholarga o‘qishimiz darkor...

(Shundan so‘ng o‘qituvchi barcha uyda «Men kim bo‘lmoqchiman» mavzusini o‘qib o‘rganishi va har bir o‘quvchi o‘z ota-onasi kasbi (hunari) haqida yangi ma’lumotlar o‘rganib kelishi topshiriladi. O‘quvchilar darsdagi faolligi, «mening fikrim» kartochkalaridagi javobiga qarab baholanadilar).

Biz odobnoma darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etib, quyidagi natijalarga erishdik:

- o‘ququvchilar hamkorlikda ishlaydi;
- fikrlar, go'yalar almashinuvi jarayoni sodir bo'ladi;
- o' quvchilarda bilimlarini o' zlashtirishga bo' lgan xohish, qiziqish ortadi;
- oqituvchi+ o'quvchi, o' diussh+o' quvchi, o' qm^ln^' quvchilar, oquvchi+oqituvchi, oquvchilar+ o'quvchilar Gamoalar) muloqoti yuzaga keladi;
- erkin ijodiy muhit yaratiladi;
- o' quvchilar faolligi ortadi;
- o' quvchilarning ham yozma, ham og'zaki nutqi rivojlanadi;
- jamoa bo'lib ishlashga o'rgatiladi;
- bilimlarni o' zlashtirish kafolatlanadi.

Boshlang‘ich sinflarda olib borilgan noan‘anaviy odobnoma darslarida interfaol usullarining qo‘llanishi tahmin qilindi. O‘quvchilarning dastlabki bilim darajasi o‘rganilib tahlil qilindi (anketa savollari ilova qilingan)va quyidagi natijalar aniqlandi.

Xulosa qilganda tajriba - sinov boshida olingan natijalar noan‘anaviy darslarda interfaol metodlardan foydalanish hisobiga samaradorlik o‘sganligidan dalolat beradi.

Xulosa

Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayoti zarurati bolgan talim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yolidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz talim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko4arish, unga ilg or texnologiyalarini joriy qilish, ta limning samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga kotariladi.

Ma'lumki, uzluksizlik va uzviylik ta'lim tizimida ortiqcha takroriylikka chek qo'yib, avvalo jamiyatning ma'naviy va intellektual salohiyatini kengaytiradi, qolaversa davlatning ijtimoiy va ilmiy texnik taraqqiyotini takomillashtirish omili sifatida ishlab chiqarishning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi va ularning o'quv-tarbiya jarayoniga kelishi ta'lim jarayonini yanada samarali tashkil etish imkoniyatini yaratadi.

Biz ushbu bitiruv malakaviy ishini yozishda mana shu pedagogik texnologiyaning ta'lim jarayoning, xususan odobnoma darslariga tadbiiq etishi, usallari, ko'rinishlari, vositalari qanday ekanligi bilan qiziqdik. Hozirgi kunda boshlang'ich sinflarja pedagogik texnologiyalar yordamida noan'anaviy darslarni qay tarzda tashkillashtirilayotganligi, pedagogik texnologiyalarni pedagogik jarayoniga tadbiiq etishda qanday kamchiliklarga yo'l qo'yilayotgani, pedagogik texnologiyalarni qo'llashda yuzaga kelayotgan muammolar, ularni bartaraf etish yo'llari, pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan odobnoma darslari, erishilayotgan yutuqlar, kutilayotgan natijalar qanday ekanligiga to'xtaldik.

Bitiruv tadqiqot ishlarimizning birinchi bobi Boshlang'ich ta'lim tizimida no'anaviy darslarni tashkillashtirishning nazariy asoslariga to'qtaldik, pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilishining afzalliklari, kamchiliklari, shakllari haqida to'xtalib o'tdik. Bunda asosan, pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslardan namunalar keltirdik, tahlil etdik.

Xulosa qilib aytish mumkinki noan'anaviy darslar tashkil etilsa, o'quvchi-o'qituvchi munosabati o'rnatiladi, qo'rquv, hadiksirash, ishonchsizlik chekinadi, o'quvchi uchun tenglik, erkinlik vaziyati tug'iladi.

O'quvchining o'z kuchi, imkoniyatini ochishga sharoit yaratib, ochilmagan qirralari ochiladi, o'qishga havas ortadi.

Kichik bo'lsada, o'quvchining olg'orlik sari qo'yilgan har bir qadami yutuq deb qaralsa, u o'quvchini yangilik sari etaklaydi, uning mustaqil fikr yuritish qobiliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, faolligini oshiradi. Ana shunda bizning asosiy maqsadimiz-bilimlarning mustahkam va puxta o'zlashtirishga erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh. M. Mirziyoev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz – Toshkent : O'zbekiston, 2017.
2. Sh.M.Mirziyoev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq /Sh.M. Mirziyoev. – Toshkent : O'zbekiston, 2017
3. I.A. Karimov "Yuksak ma'naviyat- engilmas kuch" Toshkent "Ma'naviyat" 2008 y.
4. I.A. Karimov "Mamalkatimiz taraqqiyoti va xalqimizning hayot darajasini yuksaltirish- barcha demokratik yangilanish va iqtisodiy islohatlarimizning pirovard maqsadidir" Toshkent "O'zbekiston" 2007 yil
5. I.A. Karimov "Biz uchun xalqimiz, Vatanimiz manfaatidan ulug' maqsad yo'q" Toshkent "Ozbekiston" 2001 y.
6. R.A. Mavlonova M. Arabova, G'.Salohitdinova "Pedagogik texnologiya" Toshkent. Ozbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi. "Fan" nashriyoti. 2008 y.
7. J.G.Yoldoshev, F.Yo'ldosheva, G.Yoldosheva "Interfaol ta'lim sifat kafolati" (Bolaga do'stona munosabatdagi ta'lim) Toshkent-2008 y.
8. Ishmuhammedov R. , Abduqodirov A., Pardaev A., "Ta'limda innovatsion texnologiyalar" Toshkent "IsteMod jamga ramasi" 2008 yil.
9. Y.G' Yoldoshev "Ta'lim menejmenti" Toshkent 2006
- 10.N.N. Aizixojayeva "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" Toshkent Ozbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamgarmasi nashriyoti. 2006 yil
- 11.O. Hasanboyeva "Odobnoma" 1-sinf "Ozbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent. 2007
- 12.O. Hasanboyeva, A. Ne'matova, M. Turopova "Odobnoma" 3-sinf Toshkent "O'zbekiston" 2007 yil.
- 13.O. Hasanboyeva, A. Ne'matova, G. Ibragimova "Odobnoma" 4-sinf 6-nashri

- " Ozbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent 2007 yil.
- 14.Q. Abdullayeva, M. Yusupova, S. Rahmonbekova "Odobnoma" 2-sinf. Toshkent "O'zbekiston". 2007 yil.
- 15.R.A. Mavlonova, M. Arabova "Pedagogik texnologiya" (metodik qollanma) Nizomoy nomli TDPU. Toshkent. 2008 yil.
- 16.Xalq talimi ilmiy- metodik jurnal. 2008 yil. 5-son
- 17.O`.Q. Tolipov, M. Usmonboyeva «Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy
- 18.Asoslari» O`zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi. «Fan» nashriyoti. T.
- 19.N. Qori Nizomiy nomidagi O`zbekiston PFITI, 2006 yil

Интернет сайтлари

www.ziyonet.uz

www.fikr.uz

www.eduportal.uz

www.kitob.uz

www.ziyo.uz

www.saboq.uz

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim kafedrası «Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish» ta'lim yo'nalishi 4 kurs talabasi Atajanova Nodira G'ulomjanovaning «Boshlang'ich sinflarda noan'aviy dars shakllaridan foydalanish» mavzusidagi malakaviy bitiruv ishiga

TAQRIZ

Noan'anaviy darslar tashkil etilsa, o'quvchi-o'qituvchi munosabati o'rnatiladi, qo'rquv, hadiksirash, ishonchsizlik chekinadi, o'quvchi uchun tenglik, erkinlik vaziyati tug'iladi. O'quvchining o'z kuchi, imkoniyatini ochishga sharoit yaratib, ochilmagan qirralari ochiladi, o'qishga havas ortadi.

Kichik bo'lsada, o'quvchining ilg'orlik sari qo'yilgan har bir qadami yutuq deb qaralsa, u o'quvchini yangilik sari etaklaydi, uning mustaqil fikr yuritish qobiliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, faolligini oshiradi. Ana shunda o'qituvchi asosiy maqsadi-bilimlarning mustahkam va puxta o'zlashtirishga erishiladi.

Bugungi kunda yosh avlod tarbiyasi, ularning yangicha bilim egallashlari uchun barcha imkoniyatlar yaratib berilgan. Zamonaviy o'quv dargohlari, kompyuter texnologiyalari o'quvchilar xizmatida.

Talaba «Boshlang'ich sinflarda noan'aviy dars shakllaridan foydalanish» mavzusi bo'yicha bitiruv malakaviy ishini yozar ekan, an'anaviy izchillikda reja tuzgan. Reja asosida ishni tizimli ravishda bayon etgan. Ishning kirish qismida "Ta'lim to'g'risidagi qonun", Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Boshlang'ich ta'lim Konsepsiyasidan foydalanib, boshlang'ich ta'lim oldida turgan asosiy vazifalarga to'xtalgan.

Talaba ishiniing I va II boblarida boshlang'ich sinflarda noan'anaviy darslarni tashkil qilishga oid bir qator metodik maslahatlarni bayon qilgan.

Talabaning bitiruv malakaviy ishi Oliy ta'lim muassasalarida bitiruv malakaviy ishini bajarish Nizomiga asosan yozilgan deb hisoblayman va bakalavr darajasini olish uchun himoyaga tavsiya qilaman.

Taqrizchi:

f.f.n.doc. Q.Paxratdinov

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim kafedrası «Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish» ta'lim yo'nalishi 4 kurs talabasi Atajanova Nodira G'ulomjanovanning «Boshlang'ich sinflarda noan'aviy dars shakllaridan foydalanish» mavzusidagi malakaviy bitiruv ishiga

XULOSASI

Barchamizga ma'lumki, mamlakatimizda istiqloq shabadalari esganiga 25 yildan oshiq vaqt o'tdi. Bu o'tgan davr mobaynida yurtimiz misli ko'rilmagan tarzda o'zgardi, yangicha qiyofaga kirdi. Ayniqsa turli sohalarda qabul qilingan hukumat qarorlari va farmoyishlari kelajagimizni oldindan belgilab berishimizga zamin xozirlaydi. Yurtimizda yoshlar ta'lim- tarbiyasiga davlat siyosatining muhim yo'nalishi, ijtimoiy hayotning ajralmas qismi, tarixiy madaniy an'analarga eltuvchi omil sifatida katta e'tibor berib kelinadi. Yangi sifat bosqichiga ko'tarilgan ta'lim tizimidagi tarbiyani yanada taraqqiy ettirishning asosiy yo'nalishlari; jamiyatdagi tarbiyaning ijtimoiy mavqeini oshirish, umumta'lim muassasalarida tarbiyaviy faoliyatni boshqarishni takomillashtirish, yagona ta'limiy makonni yaratish, jamiyat madaniyati va ilm fanning yangi yutuqlarini ta'lim dargohlarida qo'llash hisoblanadi.

Umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida o'qish va ona tili fanlaridan o'tkaziladigan ishlarga alohida ahamiyat qaratiladi. Shu nuqtai nazardan darslarni noan'aviy tashkil qilish metodikasiga qaratilganli boiz dolzarb hisoblanadi.

Atajanova Nodira bitiruv malakaviy ishini yozish uchun an'aviy tarzda reja tuzgan. Reja asosida ishni tizimli ravishda bayon etgan. Ishning kirish qismida "Ta'lim to'g'risidagi qonun", Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Boshlang'ich ta'lim Konsepsiyasidan foydalanib, boshlang'ich ta'lim oldida turgan asosiy vazifalarga to'xtaldik.

Talaba ishini yozish jarayonida boshlang'ish sinflarda noan'aviy darslar tashkil etilsa, o'quvchi-o'qituvchi munosabati o'rnatiladi, qo'rquv, hadiksirash, ishonchsizlik chekinishi, o'quvchi uchun tenglik, erkinlik vaziyati tug'ilishi, o'quvchining o'z kuchi, imkoniyatini ochishga sharoit yaratib, ochilmagan qirralari ochilishi, o'qishga havas ortishi yuzasidan fikrlarini qayd qilgan. Shuningdek, metodik adabiyotlardan foydalanib, hamda shaxsiy malakaviy amaliyot davridagi tajribalarga asoslanib, ishni yoritgan.

Talabaning bitiruv- malakaviy ishi Oliy ta'lim muassasalarida bitiruv- malakaviy ishini bajarish Nizomga asosan yozilgan deb hisoblayman va bakalavr darajasini olish uchun ochiq himoyaga tavsiya etaman.

Ilmiy rahbar:

f.f.d.T.Keruenov

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim kafedrası «Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish» ta'lim yo'nalishi 4 kurs talabasi Atajanova Nodira G'ulomjanovaning «Boshlang'ich sinflarda noan'aviy dars shakllaridan foydalanish» mavzusidagi malakaviy bitiruv ishiga

TAQRIZ

Bugungi ta'lim jarayoni pedagogning shaxsga bo'lgan insonparvarlashtirilgan munosabati bolalarni sevish, ularning taqdiri uchun qayg'urishi, bolalarga ishonchning yuqoriligi, o'zaro hamkorlikning vujudga kelishi, muloqot madaniyatining yuqori darajada bo'lishi, ta'lim oluvchilarni to'g'ridan-to'g'ri majburlashdan voz kechish va aksincha ijobiy rag'batlantirishning usutnligi tufayli ko'zlangan maqsadga erishish, bolalar faoliyatida uchraydigan kamchiliklarga chidamli bo'lish, ularni bartaraf etishning samarali usullarini qo'llashda namoyon bo'lsa, ta'lim jarayonini demokratlashtirish esa o'qituvchi va o'quvchilar huquqlarini tenglashtirish, ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilarga tanlash huquqining berilishi, o'z fikri, nuqtai nazarini erkin bayon etishni aqozo etadi.

Noan'aviy ta'lim jaaryonida o'quvchilar va o'qituvchilar munosabatining o'ziga xos jihati o'quvchilar mustaqilligi va o'quv faoliyatini boshqarish emas, balki hamkorlikda tashkil etish, ta'lim olishda majburlash emas, balki o'quvchilarni ishontirish, biror-bir faoliyatni amalga oshirish buyruq orqali emas, balki shu faoliyatni samarali tashkil etish, shaxsning ehtiyoji, qiziqishi, imkoniyatlarini chegaralash emas, balki erkin tanlash huquqini berish sanaladi.

Shu nuqtai nazardan mazkur ishning Boshlang'ich sinflarda noan'aviy dars shakllaridan foydalanishga boiz dolzarb hisoblanadi.

Ishda pedamalyotdagi tajribasidan foydalanganini ham qayd etganini, bu ham ishning mustaqil ijodiy xarakterdan darak beradi. Ishning kirishi, xulosasi, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatining maqsadga muvofiq tuzilgani ko'rinib turibdi. Men Atajanova Nodira ushbu malakaviy bitiruv ishini ijodiy yozilgan tadqiqot sifatida yuqori baholayman.

Taqrizchi:

f.f.n.doc. M.Xudayarova